

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

IBRAGIMOVA NAFOSAT SHUHRAT QIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: DILAFGOR ADABIY MEROSI

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Sh.Amonov

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....3-6

I BOB. DILAFGOR TARJIMAI HOLIGA OID MA'LUMOTLAR VA SHOIR ShE'RLARINING MATNIY XUSUSIYATLARI

1.1. Dilafgor tarjimai holiga oid ma'lumotlar.....7-20

1.2. Shoir she'rlarining matniy xususiyatlari.....21-32

II BOB. DILAFGOR LIRIKASINING MAVZU KO'LAMI. SHOIR IJODIDA BADIY MAHORAT MASALALARI

2.1. Shoir lirikasining mavzu ko'lami.....33-49

2.2. Dilafgor she'riyatida badiiy san'atlar.....50-60

XULOSA.....61-63

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....64-66

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek adabiyoti tarixida yaratilgan minglab asarlar badiiy adabiyotimiz tadrijiy takomilida o‘z maqomini saqlab qola olganligi bilan umrboqiylik kasb etdi. O‘tgan asr boshlarida yashagan yuzlab adiblar ijod maydonida qalam tebratganlar. Mustaqillikdan so‘ng ular ijodi milliy istiqlol ruhida tadqiq etildi va haqiqiy bahosini oldi. Biroq bu borada qilinishi zarur ishlar talaygina. Haqiqiy adabiyot muhiblarininggina ma'naviy jasoratlari evaziga saqlanib qolgan ba'zi adiblarning ijod namunalarini yaxlit ravishda o‘rganish hamon bugungi adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda. XX asrda o‘zbek adabiyoti ulkan yangilanish va o‘zgarishlarga to‘la bo‘lgan davrni boshdan o‘tkazdi. Mazkur asr milliy uyg‘onishni boshlab bergan jadid ziyolilari ijodi bilan nurafshon va muzayyan bo‘ldi. Chunki bu vaqtda Turkiston o‘lkasida ijtimoiy-siyosiy vaziyat qaltis bo‘lib, millatning ma'naviy rahnamolari mana shunday vaziyatda aziz umrlarini shu muqaddas Vatanga fido qildilar. Millatning yorug‘ istiqboli – shu millatning qutlug‘ istiqbolli evaziga yuzaga kelishini taqozo qilar va bu hodisa o‘z-o‘zidan bino bo‘lmasligi aniq edi. Shuning uchun bu millatning jasoratli, fidoyi ziyolilari zimmasiga ulkan yumush yuklangan, ya'ni ular milliy ozodlik, Vatan hurligi uchun o‘zlarining bor iste'dodlarini, tashkilotchiligini ishga solishga kirishgan edilar. Istiqlol uchun olib borilgan kurash tarixi bor haqiqat bilan ilmiy va xolis yaratilmog‘i lozim. Bu kurash esa, millatning ma'rifati, madaniyati, taraqqiyoti, pirovardida milliy istiqlol uchun olib borilgan. “Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqyealarni eslang, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” sarlavhali maqolasida. – Nega bu o‘lkada o‘sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, Chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani uyg‘otishga, xalqning ko‘zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi”¹.

Mustaqillik davrida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan ma'rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini o‘rganish borasida qator ishlar amalga

¹ “Мулоқот” журнали, 1998 йил, 5-сон, 3-бет.

oshirildi. Biroq bu davr adabiyoti bo'yicha tadqiqotchilarini kutayotgan mavzular talaygina ekani ham ayni haqiqatdir. Ana shunday hayoti va ijodiy merosi deyarli tadqiq etilmagan ijodkorlardan biri Bo'riboy Shermuhammad o'g'li Dilafgordir. Shu paytga qadar uning ilmiy biografiyasi yaratilgan emas. Shoir adabiy merosi ilk manbalar asosida alohida o'rganilmagan. Dilafgorning "Gulshani Dilafgor" to'plamidagi she'rlarni adabiy manbushunoslik va matnshunoslik erishgan bugungi yutuqlar asosida tadqiq qilish dozarb vazifalardan biridir. Qolaversa, bu ijodkor asarlarining mavzu ko'lamini, badiiy xususiyatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shunga ko'ra, ushbu bitiruv ishi dolzarb mavzu tadqiqiga bag'ishlangan.

Muammoning o'rganilish darajasi. Dilafgor hayoti va ijodi maxsus tadqiqot doirasida haligacha o'rganilgani yo'q. Shoir hayoti va ijodiga doir ayrim ma'lumotlar Adham Mamatqulov va Jaloliddin Jo'raevlar tomonidan nashr qilingan "Gulshani Dilafgor" to'plamida¹ uchraydi. Bundan tashqari, Abdurashid Abdug'afurov tomonidan "O'zbek adabiyoti"ning 4-jild, 1-kitobiga Dilafgorning 8 g'azal, 2 muxammasi kiritilgan, T.Murodiy esa "Asrlar nidosi" to'plamida² adibning qisqacha tarjimai holi bilan birga she'rlaridan parchalar bergan. Fizika-matematika fanlari nomzodi Adham Mamatqulov tomonidan shoirning Vatani bo'lmish Piskent shahrining ko'zgusi – "Piskent hayoti" gazetasida "Piskent va piskentliklar" rukni ostida "Dilafgor va uning "Duoi salom" she'ri" nomli turkum maqolalar e'lon qilingan. Aytish mumkinki, Dilafgor adabiy merosining o'zbek adabiyotida tutgan maqomini berish bugungi adabiyotshunoslik fanining muhim vazifalaridan biridir.

Bitiruv ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy ishlar rejasiga muvofiq bo'lib, O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan.

¹ Дилафгор ҳаёти ва ижодий мероси ҳақида.// Гулшани Дилафгор. – Т.: MUMTOZ SO'Z. 2011.

² Асрлар нидоси (тўплам). – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. – Б.:242-256.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad Dilafgor ijodiy merosining milliy uyg‘onish adabiyotida tutgan o‘rnini aniqlashdir. Mazkur maqsad talabidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- XX asr boshlaridagi Toshkent adabiy muhiti va unda Dilafgorning tutgan o‘rnini ko‘rsatish;
- shoirning avtobiografik asarlarini tahlil qilish;
- shoir qo‘lyozmalarining matniy tadqiqini amalga oshirish;
- Dilafgorning turli janrlarda yozgan ijod namunalari mavzu ko‘lamini yoritish;
- Dilafgor ijodida poetik mahorat masalalarini aniqlash;
- shoir ijodida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining aks etishi masalasini ko‘rsatish.

Bitiruv ishining ob'ekti va predmeti. Dilafgorning “Gulshani Dilafgor” to‘plami tadqiqot ob'ektidir. Dilafgor hayoti va ijodiga oid manbalar va tadqiqotlar bitiruv ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qo‘lyozma bayozlar, “Tazkirai Qayyumiy”, Mo‘minjon Muhammadjonov – Toshqinning “Toshkent shoirlari” tazkiralari va “Asrlar nidosi” hamda “Gulshani Dilafgor” to‘plamlaridan foydalanildi.

Bitiruv ishining metodlari. Ishni yozishda tarixiy-qiyosiy usuldan foydalanildi. Ishda ilmiy-nazariy qarashlarni dalillashda Prezident Sh.Mirziyoyev asarlari va nutqlaridagi milliy ma'naviy merosni o‘rganishga doir ko‘rsatmalar, o‘zbek adabiyotshunosligi namoyandalari erishgan ilmiy natijalar metodologik asos vazifasini bajardi.

Bitiruv ishini yozishda A.Qayumov, B.Qosimov, Sh.Yusupov, N.Karimov, U.Dolimov, N.Rahmonov, N.Jabborov, B.Karimov, U.Jo‘raqulov, Sh.Amonov kabi adabiyotshunos va matnshunoslarning ilmiy tajribalariga tayanildi. Mavzuni yoritishda qiyosiy-metodologik hamda tarixiy metoddan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dilafgorning merosi ilk bor maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmoqda. Shoir ijodining manbalari ilmiy tasnif etilib, qiyosiy tahlil etilgani, Dilafgorning ilmiy biografiyasini yaratishda muayyan natijalarga erishilgani, she'rlarining janr xususiyatlari o'rganilgani, mavzu ko'lami hamda obrazlar tizimi nuqtai nazaridan tadqiq qilingani Dilafgorning milliy adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni belgilangani ham tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Dilafgor hayoti va ijodi, xususan, she'riyatining milliy adabiyot hamda uning tarkibiy qismi bo'lmish adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy asoslariga tayanib tadqiq qilingani ishning ilmiy ahamiyatidan dalolat beradi.

Ilmiy tadqiqot natijalaridan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari filologiya fakultetlarida, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti", "O'zbek adabiyoti tarixi" fanlaridan dars mashg'ulotlari o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv ishi kirish, to'rt faslni ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. DILAFGOR TARJIMAI HOLIGA OID MA'LUMOTLAR VA SHOIR SHE'RLARINING MATNIY TADQIQI

1.1. Dilafgor tarjimai holiga oid ma'lumotlar

Dilafgor tarjimai holi va ijodiy merosiga doir ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Mavjud manbalar ham mazkur ijodkor faoliyati haqida muxtasar xabarlar shaklidir.

Mavjud manbalarga tayangan holda shoir Dilafgor hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) *shoir zamondoshlari bo'lgan tazkiranavislarning asarlarida uchraydigan ma'lumotlar.*

2) *muallif asarlarida uchraydigan ma'lumotlar.*

Shoir zamondoshlari bo'lgan tazkiranavislarning asarlarida uchraydigan ma'lumotlar. Shuni qayd etish kerakki, agar ijodkorlar o'z tarjimai hollarini yozib qoldirmagan bo'lsa, ular to'g'risida bir gap aytish mushkul. Bunday sharoitda ular haqidagi ma'lumotlar tazkiralardan qidirib topiladi. Ma'lumki, Dilafgor ham o'zi haqida batafsil ma'lumot yozib qoldirmagan. Uning hayoti va ijodiga oid ma'lumot Po'lotjon Domulla Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asarida uchraydi. Tazkirada: "Bu kishi Toshkent shoirlaridan bo'lib, Piskand qasabasidandur. Nomi Mulla Abdulboriy bo'lib, nima kasbda ekani bilinmaydi. Andijon shahridan turib Vataniga xat yozganidan Farg'ona vodiysiga kelib yurgani, savdogar bo'lgani ehtimol tutiladur. 1914 yilda 48 betli devonchasini Toshkentda o'z xarajoti ila toshbosmada bosilib chiqdi", - deyiladi va "Salomnoma" turkumidagi asaridan bir band keltiriladi¹. Po'lotjon Domulla Qayyumiy domla Dilafgor ijod namunalari bilan yaqindan tanish bo'lganligidan yuqoridagi xulosaga kelgan deyish mumkin. Shu o'rinda shoirning kasb-kori, asli ismi kabi jihatlar haqida boshqa manbalarda o'zgacha ma'lumotlar borligini ta'kidlash zarur. Yani Dilafgorning o'zi tomonidan nashr qilingan "Gulshani Dilafgor" kitobining birinchi sahifasida "Mulla Abdulboriy" deb qayd qilinganiga

¹ Пулотжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. – Т.: 1998. 2-жилд. – Б.379.

qaramay u o‘zini kitob so‘ngida “Kitobfurush mullo Bo‘riboy Shermuhammad o‘g‘li” deb tanishtiradi.

Shoir Piskent ahliga mulla Bo‘ri Shermuhammad hoji o‘g‘li Dilafgor nomi bilan ma'lum va mashhur bo‘lib, u 1877-1949 yillarda yashab, ijod etgan.

Shoirning otasi Shermuhammad hoji Fayziboy hoji o‘g‘li mirishkor dehqon, onalari Bunisa otin nihoyatda ilmi ayol bo‘lgan. Bunisa otindan taniqli olima Muzayyana Alaviya, piskentlik Hamroh otin, Tursun otin, Huri otinlar tahsil olgan.

Dilafgorning uch o‘g‘li va ikki qizi bo‘lgan. Katta o‘g‘li Jo‘raning Abbas va salomat ismli farzandlari bor. Quddus va Yunus ismli o‘g‘illari Ikkinchi jahon urushiga ketib, halok bo‘lishgan. Quddusning o‘g‘li Sobir Said qishlog‘ida yashab o‘tgan. Katta qizi Sharifa hozir 85 yoshdan o‘tgan bo‘lib, Toshkentda istiqomat qiladi. Ikkinchi qizi Latifa ham Toshkentda yashab o‘tganlar.

Mulla Abdulboriyning ikki ukasi bo‘lgan: katta ukasi Mirzaahmad Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan (1943 yil). Uning Rustam va Elnora ismli farzandlari bo‘lib, qizi hozir ham Toshkent shahrida istiqomat qiladi. Ukasi Bekmuhammadning ikki qizi va bir o‘g‘li bor. Dilafgorning Dono va Ulug‘bu ismli singillari bo‘lgan. Bundan tashqari, shoirning Oynisa, Muharram va Tuhfaniso ismli singillari ham bo‘lgan.

Otasi Shermuhammad hoji ikkinchi bora haj safariga otasi Fayziboy hoji bilan birga borgan. Fayziboy hoji uchun bu uchinchi haj safari bo‘lib, shu uchinchi ziyoratda Makkai mukarrama shahrida vafot etganlar¹.

Dilafgor hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risida ancha batafsil ma'lumotlar Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘li Toshqinning “Toshkent shoirlari” tazkirasida uchraydi. Jumladan, tazkirada Dilafgor haqida quyidagi ma'lumotga duch kelamiz:

Shoir Dilafgor (Toshkent - piskentlik)

Bo‘ri Sher hoji o‘g‘li – Dilafgor 1882 nchi yilda Toshkent o‘blast, Piskent rayun, Piskent qishlog‘ida o‘rta dehqon oilasida tug‘ildi. Hozir (1948 nchi yilda) 66 yoshida.

¹ Маматқулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси хақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент.: MUMTOZ SO‘Z. 2011. – Б. 3-4.

O‘z qishlog‘ida Abdurrashid nomlik mudarrisda “Sharhi mullo Jomiy”gacha dars o‘qudi. So‘ngra Qo‘qonga borib, “Sultonmurodxon” madrasasida mulla Kamol nomlik mudarrisda “Sharhi viqoya”dan dars o‘qudi. She‘r va adabiyot ustodi yo‘q. Qoriy, Umarxon va Alisher Navoiy devonlarini ko‘p o‘qub, shulardan ilhom olib, she‘r yoza boshlagan. Muqimiy, Furqatiy singari san‘atkor shoir emas. Kamiy, Xislat, Miskin singari shoirlar bilan ko‘p suhbat qilgan.

Dadamuhammad nomlik sahhofdan muqovachilikni o‘rganib, ancha vaqt muqova hunari bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shu orada sahhoflik (kitobfuroshlik) ham qilgan. 1914 nchi yilda “Gulshani Dilafgor” nomidagi she‘r to‘plami o‘z xarajati bilan bosdirilib nashr qilingan. Ko‘p vaqtdan beri she‘r yozmay qo‘ygan. Faqat yer islohotiga atab bir, paranji tashlashga atab bir she‘r yozgan. Paranjiga atab yozganini yo‘qotgan, yer islohotiga yozganlarini 1926 yilda “Qizil O‘zbekiston” gazetasining bir sonida bosilgan. Ikki o‘g‘li armiyada bedarak yo‘qolgan va bir o‘g‘li o‘lgan. Shularning qayg‘usi uni juda ezib qo‘ygan. Bularning ustiga chap qulog‘ini oftobus sidirib ketib, kar quloq bo‘lib, zo‘rg‘a eshitadigan bo‘lib qolgan. Bir tomonda qarilik ham ancha ta‘sir qilgan. O‘lgan o‘g‘li ham bedarak yo‘qolgan o‘g‘ullariga marsiyalar yozibdir. Uch o‘g‘ul, uch qiz ko‘rgan bo‘lsa ham shulardan faqat ikki qizi tirik.

O‘blastnuy prakrur Sherhojiyuf buning ukasi bo‘lib, buning turmushiga yordamlashib turar ekan. Hozir “Qur‘on” tilovat (qilish), “Daloil ul-xayrot” o‘qish va namoz singari diniy ishlar bilan ko‘p vaqtini o‘tkazmoqda. O‘z kitob magazinida kitob ham sotadi.

Adrisi:

Toshkent o‘blast, Piskent rayun, Piskent

qishloq, Ko‘mso‘mo‘lko‘cha, 150-hovlida turadi.

Shundan so‘ng manbada shoir Dilafgor to‘g‘risida ikkinchi ma‘lumot keltiriladi:

Shoir Dilafgor 1914 nchi yilda (revolyusiyadan 3 yil burun) “Gulshani Dilafgor” nomlik bosmaxonada toshbosma bilan 48 betlik qilib, o‘z xarajati bilan

bosdirdi. Bu she'r to'plamining xushxat kotibi "Kotib" taxalluslik, "Jalolobod" shaharlik Abdulhamid rassom, fo'to'chi bo'lib, buni 1313 nchi hijriy 22 nchi jumodu-l-oxirda yozib tugatgan.

Bu to'plamda: 14 nchi betda shoir Xislatga she'r bilan yozilgan bir xati (Asiriy Xo'jandiya nazirasi), 18 nchi betda "Millat" nomida bir she'ri (Tavallo she'riga nazirasi), Haziniy, Muqimiy, Miskin, Zavqiy, Xo'qandiy, Furqatiy, Kamiy taxalluslik shoirlarga muxammasi bor"¹, - degan qaydlardan so'ng uning "Biri ekan mundog'", "Millat", "So'rang" va negadir Toshqin "Bo'taxon" ismiga muxammas" deya qayd etgan, lekin muvashshah bo'lgan she'r hamda Toshqin tazkirasining 414-418-betlarida shoirning Ulug' Vatan urushiga bedarak ketgan 2 o'g'li – Abdulquddus va Yunuslarni sog'inib yozgan 2 she'ri – «Giribon chokman» va «Sog'inib» berilgan.

Toshqin ma'lumotlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, ba'zi bir noaniqliklarga duch kelish mumkin. U ham bo'lsa: "Faqat yer islohotiga atab bir, paranji tashlashga atab bir she'r yozgan" deya, shoir Dilafgorni go'yoki o'sha davr mafkurasini ko'klarga ko'tarmaganlikda ayblagandek bo'ladi. Albatta, bunday satrlarning vujudga kelishini o'sha davr hukmron mafkurasi ta'siri deb baholash mumkin.

Adabiyotimiz tarixidan ma'lumki, kotiblar ko'chirayotgan asarlariga o'zlari haqida ham ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Bundan tashqari, ijodkorning bevaqt olamdan ko'z yumganligi sabab bo'lib ham kotiblar shoir yoki adibning asarini tugallab qo'yish hollari ham bo'lgan. Masalan, "Boburnoma"ni ko'chirgan kotib Bobur vafotidan keyingi ba'zi bir voqyealarni yozib qoldirgan. Munisning "Firdavsu-l-iqbol" asarini o'z jiyani Ogahiy davom ettirganligi ana shular sirasidandir. "Gulshani Dilafgor"ni ko'chirgan kotib ham o'zi yozgan quyidagi she'rni mazkur to'plamga ilova qilgan:

*Ey qiblagohim onam, bir fazli havo aylang,
Yuz shukri Xudo bo'lsun hamd ila sano aylang.*

¹ Мўминџон Муҳаммадџон ўғли – Тошқин. Тошкент шоирлари. – Б.402-405.

*Oh, aylamadim doim bir xizmati shoista,
Hurmat yukini ortib qaddimni duto aylang.*

*Bu xastai noqobil arzini Xudoyimg'a,
Kechsunki, gunohimni Tengrig'a sazo aylang.*

*Haq amrini tutmasdin, farmonig'a yurmasdin,
Sizlarga jafo ettim, yuzumni qaro aylang.*

*Hyech rozimusiz mandin sizlarga gunoh ettim,
Ey ota, mani qul deb sotmoqg'a baho aylang.*

*Bu telba o'landin, zora, dil birla jigarpora,
Bir dardg'a duchor o'ldum, dardimg'a davvo aylang.*

*Ofatg'a mahal yetsa, jismimg'a kasal yetsa,
O'lsamki, ajal yetsa, ul damda azo aylang.*

*Jonimki, chiqar bo'lsa, yonimda turung hamroh,
Arzi kalima deyub mango, shaytonni judo aylang.*

*Bir pora kafan aylab, tobutg'a yofing jomim,
Yuzumni qilib qibla ustumda navo aylang.*

*Bir aylamayin rozi, hasratda ado qildim,
Kulfat ne, davom et(t)im, murdamg'a jafo aylang.*

*Totig'ucha qabriston faryod urubon yig'lab,
Tengrig'a siporish deb man birla davvo aylang.*

*Bir bora mazoring 'a yuz nola fig'on aylab,
Tufrog 'ima boribsiz qabring 'a nido aylang.*

*Mansiz ikingiz yalg 'uz Is'hoq ila hamshiram,
Onlar siza hamdamdur Qosimni aso aylang.*

*Chun ma'raka aylangiz to yetti tamom o'tsa,
Dargoha qabul o'lsun, jonlig 'ni fido aylang.*

*Haq birla qolsa shoyad bu yuzi qaro qulni,
Arvohima xatm aylab, ruhumg 'a duo aylang.*

“Kotib” taxallusli kotibning ilova-she'ridan ayon bo'lishicha, Kotib ona yurtidan olis Toshkent shahrida, musofirchilikda ota-onasidan uzoqda yashab ilm tahsil qilib yurgan paytlarida quyidagi misralarni yozgan ko'rinadi.

Muallif asarlarida uchraydigan ma'lumotlar. Shoir yoki adibning tarjimai holini to'ldiruvchi manbalardan biri o'sha muallifning avtobiografik asarlari ham hisoblanadi. Shoirning muosirlari og'zidan yozib olingan ma'lumotlar shoir yoki adib tarjimai holini to'ldiruvchi muhim manba sanaladi. Shunga ko'ra “Gulshani Dilafgor” to'plami noshirlari ham (Mamatqulov A., Jo'raev J. Dilafgor va uning adabiy merosi haqida. // Gulshani Dilafgor. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z. 2011) shoirning zamondoshlari, yaqinlari, birodarlaridan so'rab-surishtirib, “Duoi salom” she'rida uchragan kishilar haqidagi ma'lumotlarni mazkur to'plamga ilova qilib, xayrli bir ishni amalga oshirganlar.

Biz ham shoir Dilafgorning “Duoi salom” she'rida qayd qilingan kishilar ismi asosida noshirlar ilova qilgan ma'lumotlarni qiyoslab ma'lum ma'noda shoirning tarjimai holiga doir ma'lumotlarni aniqlashga harakat qildik. Shuningdek, shoirning adabiy davrasida kimlar bo'lganligi haqida tasavvur beruvchi ayrim ma'lumotlarni ko'zdan kechirdik. Shu boisdan ham quyida Dilafgorning “Duoi salom”ida nomlari zikr qilingan shaxslar haqida qiyosiy xarakterdagi ma'lumotlarni berishni lozim topdik:

Abdumavlon Maxdumiy boybachchag‘a behad salom,
Ham yana ul **Sayyid A'zamxon** shakarfazga payom,
Mullo Ibrohim, Abulqosim¹ tikuvchi subhu shom,
Xotiringdan ketmasun, albatta-albatta kalom,
Mullo **Odil vofurush** kasbi havolarga duo.

Abdumavlon Maxdum – (1870-1945). Dilafgor va uning o‘rtoqlariga jo‘raboshi bo‘lgan. Kasbi-kori dehqonchilik bo‘lgan Abdumavlonning katta yeri bo‘lib, hozirgi 1-maktab o‘rni va uning atroflari unga tegishli bo‘lgan, ziroatchilik bilan shug‘ullangan.

Sayyid A'zamxon – (1879-1933). Sayyid Valixon o‘g‘li. Asli toshkentlik bo‘lib, yoshlikdan Piskent shahrida muqim yashab qolgan. Sayyid A'zamxon boyning “rastai yarmarkada” (hozirgi shahar markazidagi rastalarda, qishki kinoteatr o‘rni va uning atrofida) arqon, egar-jabduq kabi o‘sha zamonning mollari bilan savdo qiluvchi do‘konlari bo‘lgan, qandolat mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullangan.

Sayyid A'zamxon nihoyatda iymon-e'tiqodli, oilaparvar, tadbirkor, nazm va nasrni yaxshi tushunadigan nozikta'b inson bo‘lgan.

Bo‘sh vaqtlarida bolalarga Huvaydo g‘azallarini o‘qib, ma'nolarini tahlil qilib bergan. Sayyid A'zamxon XX asrning 30-yillarida “quloq” qilinadi va qamaladi. Biroz vaqtdan so‘ng Kattaqo‘rg‘ondagi qamoqxonadan chorasini qilib qochib ketadi va Piskentga kelib, uy-joylarini tashlab oila a'zolarini Toshkentning Chaqar mahallasidagi qarindoshlarinikiga olib borib qo‘yadi, o‘zi esa bir muddat yashirib yuradi. Keyinchalik o‘g‘illari A'zamov Tojixonning sa'y-harakatlari bilan to‘liq oqlanadi va musodara qilingan uy-joylarini qaytarib oladi. Sayyid A'zamxon 54 yoshida vafot etadi.

Sayyid A'zamxonning katta qizi Muhabbatxon bo‘lib (1918-1947), uning farzandlari Saidaxon va Asadxonlar shifokor bo‘lib yetishgan. O‘g‘li A'zamov Tojixon ham shifokor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan tibbiyot xodimi urush qatnashchisi, jahondagi sanoqli “shaxmatchilar oilasi”dan birining boshlig‘i, xat

¹ Курсивда берилган киши исмлари хақида маълумот аниқланмаган.

orqali shaxmat o'ynash bo'yicha O'zbekiston chempioni (1937). Tojixon akaning katta o'g'li Vyacheslav (1946) shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtasida sobiq ittifoq chempioni (1962), sport ustasi, oliy ma'lumotli injener, uzoq yillar Olmaliq tog'kon metallurgiya kombinatida ishlagan. Hozirgi kunda O'zbekiston shaxmat federatsiyasida ishlaydi. Faxriylar orasida respublika chempioni (2008, 2009 yy.), ikkinchi o'g'li Valeriy (1950) sport ustasi. Olmaliqdagi shaxmat klubi direktori, xalqaro toifadagi hakam, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy. Kenja o'g'illari Georgiy A'zamov (1954-1986) Markaziy Osiyodan chiqqan birinchi xalqaro grossmeysterdir. 1983 yil spartakiadada qatnashib A.Karpov, G.Kasparov kabi shaxmatchilar bilan kuch sinashadi va yuqori o'rinlardan birini egallaydi. Kuba va Kolumbiyada o'tkazilgan xalqaro turnirlarda g'alaba qozonadi. Sobiq ittifoq 52-chempionati va Sochi xalqaro turniri g'olibi, 1985 yilda I.Gandi kubogi sohibi bo'lgan. G.A'zamov 32 yoshida baxtsiz tasodif sababli hayotdan ko'z yumgan.

Sayyid A'zamxonning keyingi qizi Maqsadxon (1925-2000) ko'p yillar Piskentdagi bolalar uyida ishlagan, yetim va nogiron bolalarga yordam bergan. Farzandlari Botirxon vrach, Mamlakatxon farmatsevt, Bahodirxon tijoratchidir. Sayyid A'zamxonning yana bir o'g'li Tursunxo'ja (1929-2000) Olmaliq sog'liqni saqlash tizimida ishlagan.

Odil vofurushning beshta farzandi – Mirolim, Mirkarim, Mirtolib, Mirkomil va Mirobidlar bo'lib, nabiralaridan biri Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asarini ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilgan olim, filologiya fanlari nomzodi Qayum Karimovdir. “Otam Mirobid oshpaz bo'lib, men Orif Piskandiy ham Odil vofurush nabirasiman”, - degan edi Qayum aka.

Olmaliq shahridagi politexnika institutida o'qituvchilik qilgan Dilbar Muhiddinova o'z otalari Mu'iytxon va amakilari mulla Nodirxon haqida, shifokorlar Karimjon Siddiqjonov otasi Siddiqboy haqida, Botirxon Zoirov esa tog'asi Sayyid A'zamxon shakarpaz haqida ma'lumotlar berishadi. Mulla Fayzi haqida nevaralari Sevara, Abdumavlon Mahzum haqida o'g'illari Qodirjon aka, mulla Samsiq (Sarimsoq) haqida qizlari Mohira opa, Hasanboy va Husanboy

haqida hozirgi kunda 90 yoshdan oshib farzandlari ardog'ida bo'lgan Husanboy akaning kelinlari Zebi aya, Odil vofurush xaqidagi ma'lumotlarni ularning nevaralari pedagog va shoir Orif Obidov, Abdurahim qori haqida ularning qizlari Mahbuba opa ma'lumot berishgan.

Mullo Fayzi katta yo'l ustidadur, bo'lsun omon,
Lafkador erdi qaroqosh bir yigit *Noyob* degon,
Sog'larmu vaqti xursandmu **Siddiq boybachcha** jon,
Ul **Sulaymonxon** muazzin, ham **Komilxon** begumon,
Chahorsuda jumlai ahli kazolarga duo.

Mulla Fayzi Inoyat hoji o'g'li 1890 yillarda Piskentda tug'ilib, 1938 yillarda vafot etgan. Uning onasi barvaqt vafot etib, go'dakligida onadan ajragan bolani enagaga berishadi va 12 yoshgacha enaga tarbiyasida bo'lib, ota uyiga qaytib keladi. 1912 yilda Inoyat hoji Hamroxon ismli Toshkentlik ayolga uylanadi. 1914 yili Inoyat hoji vafot etgach, uning butun boyliklari, do'konlari Fayzi otaga qoladi. Matolar, tilla taqinchoqlar bilan savdo qiladi. Shuningdek, Piskentda mingboshilik qilgan Inoyat hojidan Mingtepa va Said qishlog'i atrofidagi katta yerlar ham Fayzi otaga meros bo'lib qolgan.

Mulla Fayzi o'z zamonining o'qimishli va ziyoli kishisi bo'lgan. Madrasalarda o'qigan, arab va fors tillarini bilgan. Qaynotasi To'raqul mirzo (1864-1930) din va davlat arbobi bo'lib, ulamo Alixonto'ra Sog'uniyning (1885-1976) maslakdoshi, yaqin do'stlaridan bo'lgan.

Siddiqboy (Siddiqhojiboy) – Dadajonboy hojining to'ng'ich o'g'li bo'lib, Ahmadjon ismli ukasi ham bo'lgan. Dadajonboy taxminan 1855 yillarda tug'ilib, 1910 yillarda vafot etgan. Dadajonboy tijorat ishlari bilan shug'ullanib, o'z zamonasining ishbilarmon va badavlat kishilaridan biriga aylangan. Siddiqboydagi boylik, yer-mulklar otasi Dadajonboydan meros bo'lib qolgan, uning Piskentda va Toshkentda bir necha savdo do'konlari bo'lgan. Qo'rg'oni, kattagina yeri bo'lib, paxtachilik bilan shug'ullangan.

Sulaymonxon – Piskentda 1875 yillarda tug'ilib, 1935 yili vafot etgan. Kasbi attorlik bo'lib, o'zining savdo do'konlari bo'lgan. Farzandlari Sanobarxon otinning

Sobirxon, Muhammadxon ismli o'g'illari va Mohiraxon ismli qizi bo'lgan. Sulaymonxonning turmush o'rtog'i Karomatxon opa katta otin bo'lgan.

Komilxon aka (Kamoliddinxon) – 1878 yilda Piskentda tavallud topgan. Otalari Zaynobiddin domla 1850 yillarda Pang'ozda tug'ilgan bo'lib, Buxorodagi madrasada ilm olgan. Kamoliddinxon akaning Bahodirxon ismli ukasi bo'lib, 1886-1961 yillari yashagan va uzoq yillar davomida Piskent jom'e masjidida imom xatibi bo'lgan. Zaynobiddin domla Piskent markazida o'z mablag'idan masjid qurdirgan va qatag'on yillari ixtiyoriy ravishda bu binoni davlatga topshirib, qatag'ondan omon qolgan. Ushbu masjid binosi tuman matlubot jamiyatiga berilib, keyinchalik buzilib, o'rniga markaziy bozor qurilgan. Zaynobiddin domla Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon bilan juda qadrdon bo'lib, Buxorodagi madrasada unga saboq bergan. Zaynobiddin domla Piskentning yarmarka mahallasidagi masjidda imomlik qilgan. Kamoliddinxon aka dastlab, 12 yoshigacha mulla Abdurashid domladan tahsil olgan, keyinchalik Piskentdagi Beglarbegi masjidda imomlik qilgan mulla Xolmat domla (1870-1944)dan saboq olgan. Kamoliddinxon 16 yoshida hunar o'rganish maqsadida o'sha paytdagi arman ustalariga shogird tushib, eshik, rom, shkaflar yasashni o'rganadi. 1939 yili Toshkent kanali qurilishida usta duradgor bo'lib mehnat qilgan bo'lsa, urush yillari Alimkent paxta zavodida ishlagan.

Ilm-ma'rifatga qiziqqan, umrining oxirigacha ustachilik bilan shug'ullangan Kamoliddinxon aka 101 yil umr ko'rgan.

Holi ham bormu salomat ul *In'omxon chitfurush*,
Tim tegida **mullo Samsiq**, kasbi kori nosfurush,
Bormular sihat-salomat ul *Xudoyqul to'nfurush*,
Mullo Muxtor qorini ko'rsang agar aylab xurush,
Aytako'r, albatta, xushfahmu zakolarga duo.

Mulla Samsiq (Sarimsiq) – 1893-1977 yillar yashab, 84 yoshida vafot etgan. Piskentdagi “Bolshevik” jamoa xo'jaligida ko'p yillar buxgalter, ferma mudiri bo'lib ishlagan. Yoqubbek badavlatning nevarasi, 92 yoshida vafot etgan Abduvahobbek bilan juda yaqin do'st bo'lishgan.

Boqma olifta yuronlarni qilon raftorig'a,
Dilrabolarni fasohatda shakar guftorig'a,
Xolisallilloh so'rab qo'yg'il, suxan osorig'a,
Mahdumi Abdullojonu Abduno'mon qorig'a,
Ham *Fo'lodxo'ja eshondek mahliqolarg'a* duo.

Abdullajon maxzum 1883 yili Piskentda tug'ilgan. U kishining otasi Orifhoji Zokir o'g'li bo'lib, katta yer egasi bo'lgan. Abdullajon maxzum baland bo'yli, keng yelkali, barvasta inson bo'lib, o'z zamonasining ilg'or va ishbilarmon kishilaridan bo'lgan, rus tilida erkin va ravon so'zlasha olgan, g'oyatda mergan ovchi bo'lgan. Abdullajon maxzum 1929-1932 yillardagi boylarni quloq qilish davrida "Barcha boylik, yer-suv, mol-mulklar menga tegishli, ukam Abduno'mon qorida hych narsa yo'q", deb ukasini quloq qilinishidan saqlab qolgan. Abdullajon maxzum 1932 yili qatag'on qurboni bo'lgan.

Abduno'mon qori – 1885 yilda tug'ilib, o'z davrining madrasasida tahsil ko'radi, ilimli, kitobga mehr qo'ygan ulamo bo'lib yetishadi. Shayx Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiy asarlariga, Boborahim Mashrab, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor kabilar ijodiga o'zgacha mehr qo'ygan. 1953 yilning boshlaridagi ta'qiblardan zada bo'lgan Abduno'mon qori barcha kitoblarini ikkita qopga joylab fevral oyining yog'inli va sovuq tunlaridan birida o'g'illari Zikrjon bilan birga ularni mozorga olib borib ko'madi. Abduno'mon qori Orifhoji o'g'li 1965 yil 25 noyabrda 80 yoshida Piskent shahrida vafot etgan.

Ro'zi panjshanba tamosho aylabon yarmankani,
Ul *Uzoq qassob, samovorchi Muhammadalini,*
Ham **Husanboyu Hasanboy, Abdurrahim qorini,**
Ko'z tanish ahli guzar, jumla qadr don borini,
Biz uchun albatta, ey sohilsadolarga duo.

Dilafgorning do'stlaridan **Hasanboy** va **Husanboylarning** kasbi-kori qandolatchilik bo'lgan. Husanboy aka keyinchalik tikuv mashinalarini tuzatish bilan ham shug'ullangan. Hasanboy va Husanboylar taxminan 1875 yillarda tug'ilgan bo'lib, Hasanboy 1931 yili, Husanboy esa 1930 yilda vafot etishgan.

Abdurahim qori Nosir o'g'li 1881 yilda kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelib, 1956 yil 19 oktyabrda 75 yoshlarida vafot etgan. Abdurahim qori otadan juda yosh yetim qolgan va onasi Marziya otin, tog'alari mulla Abdurashid domla tarbiyasida voyaga yetgan. Ilmga chanqoq Abdurahim aka o'sha davrning ulamolariga xizmat qiladi, ular yordamida dastlabki savodini chiqaradi, o'qish va yozishni o'rganadi. Tog'asi yordamida Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasida tahsil oladi.

Garchi lutf aylab mabodo madrasa qilsang guzar,
Mullo Nodirxon, Niyozmat qorini ko'rsang agar,
Degil albatta salomi beaded so'rsa alar,
Ahli madrasa, chiroylik dilrabolarga nazar,
Aylasang, albatta ayt husni ziyolarga duo.

Nodirxon Malikov – 1882 yilda Piskentda tug'ilgan. Yoshlikdan ilmga chanqoq, tirishqoq va qiziquvchan bo'lgan. Dastlabki ma'lumotni Piskentdagi, so'ng Buxoroi sharifda oliy madrasada ilm oladi. Keyinchalik Piskentga kelib madrasada talabalarga saboq beradi. Uzoq yillar Piskentdagi Jome' masjidida imom xatiblik qilgan.

Piskentliklar **Niyozmat qori** akani yaxshi bilishadi. Shahar markazidagi do'konda umrining oxirigacha mudirlik qilgan. O'g'li Homid aka uzoq yillar pasport stoli boshlig'i bo'lib ishlagan, farzandlari va nevaralari o'qituvchilik va shifokorlik kasblarida ishlab kelishmoqda.

Bormu **Omixon to'ra** sihat-salomat mulk aro,
Ham yana **mullo Muhiddin** dilbari huriliqo,
Degil albatta basad albatta, ey bodi sabo,
Har na ko'rganingni bir-bir so'zlagil qilmay ibo,
Jumlai xurdu kalon, tab'i rasolarga duo.

Omixon to'ra ayollari Hamza otin bilan farzandlari Abduvahob va Abdulazizni tarbiyalab voyaga yetkazishgan. Abdulaziz aka hozir Olmaliq shahrida istiqomat qiladi.

Dilafgorning eng yaqin do'stlaridan biri mulla Odil vofurush o'z davrining ilmi kishilaridan bo'lmish Mirbuva to'nfurushning o'g'li bo'lgan. Mirbuva to'nfurushning otasi Mirzoir o'sha davrda Marg'ilondan Piskentga kelib chit va bo'z to'qiydigan oila bilan hamkorlik qilib, to'qigan matolarini sotib yurganlaridan ularni Mirzoir chitfurush deyishgan.

Farzandlari Mirbuva va ularning ayollari esa to'n tikib sotishganidan Mirbuva to'nfurush deb atashgan. Ularning farzandi Odil Mirboboev dehqonchilik ishidan tashqari kosiblik ham qilgan. Kovush va maxsido'zlik bilan shug'ullanganidan ularni mulla Odil vofurush deyishgan.

Muhiddinxon Malikov (Muyitxon) 1888 yilda Piskentda tug'ilib, maktab-madrasada tahsil olganlar. Asosan daladagi yumushlar va dehqonchilik ishlari bilan shug'ullangan. O'sha paytdagi Piskentning boy-badavlat kishilarining yerlarida qarol bo'lib ishlagan, paxta yetishtirib, oila boqqan.

Muyitxon aka "Pyatiletka" xo'jaligiga rais qilib saylanadi. Ushbu xo'jalik ilg'or xo'jaliklardan biriga aylanadi. Bu ishlarda Muyitxon akaning ishbilarmonligi, o'ta adolat bilan ish yuritishi, odamlarga mehribonligi asosiy omillardan bo'lgan. O'sha paytdagi respublika yetakchilari Y.Oxunboboev, F.Xo'jaevlar jamoaga tez-tez kelib turishgan. 1937 yildagi qatag'on oqibatida F.Xo'jaevlar qatorida Piskent firqa qo'mitasi birinchi kotibi Abbosxon Boboxo'jaev ham qamoqqa olinadi. Ularning "dumi" deb M.Malikovlar 1938 yillarda qamaladi va otishga hukm qilinganlar qatorida bo'ladi. Lekin o'z davrining ziyoli ayollaridan bo'lgan turmush o'rtog'i Muharramxon opaning sa'y-harakati natijasida qayta sud bo'lib, Muyitxon aka oqlandi.

1939 yillardan boshlab M.Malikov Piskentda paxta va sabzavot yetishtirish ishlari bilan shug'ullangan.

Shu bilan birga "Duoi salom"da nomlari keltirilgan mulla Ibrohim, Abul Qosim tikuvchi, lafkador Noyob, Inomjon chitfurush, mulla Muxtor qori, Fo'lodxo'ja eshon, Xudoyqul to'nfurush, Uzoq qassob va samovarchi

Muhammadalilar haqida hech bir ma'lumot topa olmadik, - deya izoh berishadi “Gushani Dilafgor” noshirlari¹.

Ta'kidlash kerakki, Dilafgor nafaqat o'z ijodi bilan, balki davrining ilg'or va ziyoli vakili sifatida ham o'z o'rniga ega bo'lgan.

Ushbu fasldagi ilmiy kuzatuvlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mavjud manbalarda Dilafgor “Mulla Abdulboriy” deb qayd qilinsada, biroq shoir o'zini “Kitobfurush mullo Bo'riboy Shermuhammad o'g'li” deb tanishtiradi. Shoir Piskent ahliga adib mulla Bo'ri Shermuhammad hoji o'g'li Dilafgor nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lib, 1877-1949 yillarda yashab, ijod etgan.

2. Dilafgor shoir sifatida salaflariga ergashadi, ularga taxmislar bog'laydi, fuzuliyona tilda g'azallar bitgan, Yassaviy, Mashrab, Xislat, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Zavqiy, Furqat, Kamiy kabi shoirlarga muxammaslar bog'lagani fikrimizni tasdiqlaydi.

¹ Гулшани Дилафгор. – Т.: МУМТОЗ СО‘З. 2011. – Б. 93-101.

1.2. Shoir she'rlari matniy tadqiqi

Dilafgorning o'z qo'li bilan tartib berilgan "Gulshani Dilafgor" she'riy guldastasi 1914 yilda Toshkentdagi Yakovlev tipografiyasida bosilgan va xalq orasida keng tarqalgan. Qariyb bir asrga yaqin vaqt o'tib, uning ana shu she'riy guldastasi yangi ifor taratdi. Yani ushbu to'plam Adham Mamatqulov va Jaloliddin Jo'raevlar tomonidan nashrga tayyorlanib, joriy imloda chop etildi. Albatta, noshirlarning bu xayrli ishi taqsiinga sazovor. Ishni yozish jarayonida biz ham ko'plab ma'lumotlarni ayni shu to'plamdan lishimizga to'g'ri keldi. Negaki, shu paytgacha amalga oshirilgan Dilafgor haqidagi yagona to'liq manba shu to'plamdir. Ana shu jihatdan ham "Gulshani Dilafgor"ning joriy imloda nashr etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgani bois, "Gulshani Dilafgor"dagi she'rlarning asliyati va nashr nusxalarini qiyosiy o'rganganimizda ba'zi bir matniy tafovutlar borligi aniqlandi.

Dilafgor she'rlari matnidagi o'zgartirishlarning ikki turi kuzatildi: 1) **tovushlar va so'zlarning o'zgarishi**; 2) **misra, bayt va bandlarning o'zgarishi**. Ta'kidlash joizki, matndagi bunday o'zgartirishlar, katta-kichikligidan qat'i nazar, ba'zan asardagi tarixiylikka putur yetkazsa, ayrim hollarda badiiy shaklning buzilishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bunday o'zgartirishlar, she'r ritmiga, uning o'ziga xos ohangiga zarar keltirishi mumkin. Binobarin, matn asliyatiga kiritilgan har qanday o'zgartirish maqsadga muvofiq emas. Aniqlangan ayri mulohazali o'rinlar quyida jadval qo'rinishida keltirildi (Dilafgor "Gulshani Dilafgor" idagi she'rlarda, ko'pincha, **tovushlar va so'zlarning o'zgarishi** uchraydi (Yakovlev tipografiyasidan chiqqan bosma nusxani shartli ravishda "Ya"; Adham Mamatqulov va Jaloliddin Jo'raevlar nashrga tayyorlangan joriy yozuvdagi nashrni esa shartli qilib "M"; Biz to'g'ri deb topgan matni shartli tarzda "T" deb nomlandi. Toshbosma va nashr sahifalari raqamlari shartli qisqartma yonida qayd etib borildi.):

№	Matnlar	Nashri va sahifasi
1	بِ حَقِّ حَرَمِ نَبِيِّ حَضْرَتِ آدَمِ صَالِحِ نُوْحِ نَبِيِّ مَكْرَمِ شَيْثِ	Ya, 3

	Bahaqqi hurmati hazrati Odam, Shish , Solih, Nuh, nabiyi mukarram.	M, 34
	Bahaqqi hurmati hazrati Odam, Shis , Solih, Nuh, nabiyi mukarram.	T
2	حرمات حضرت عیسیٰ الہی رگان صیب ای تگیل شفاعت عاصی لا	Ya, 3
	Ilohiy , hurmati hazrati Iso, Osiylarga nasib etgil shafolat.	M, 34
	Ilohi , hurmati hazrati Iso, Osiylarga nasib etgil shafolat.	T
3	آخرت بارغانده ق تیغ خلق ارا شرمندہ ل یک ش فانی ای زلاگ یل مرهمجرم ع صدیان یندگنہ سن	Ya, 5
	Oxirat borg'onda qattig' xalq aro sharmanbalik, Jurmu isyoningg'a sen barham shifoni izlagil.	M, 22
	Oxirat borg'onda qattig' xalq aro sharmanbalik, Jurmu isyoningg'a sen marham shifoni izlagil.	T
4	تولدیدی وراک یم بر دلرب ادین ایری لیب قانہ آشنادین ایری لیب ایری لیب آقدی جگرلار	Ya, 5
	Qonga to'ldi yuragim, bir dilrabodin ayrilib, ezilib oqdi jigarlar, oshnodin ayrilib.	M, 12
	Qona to'ldi yuragim, bir dilrabodin ayrilib, ezilib oqdi jigarlar, oshnodin ayrilib.	T
5	امیدنی دیب دل افگار ر شتہ ک یلماسورنہ ون نہ یعجب اول آشنادین ایری لیب ک یلسہ برک	Ya, 6
	Varna kesmas , deb Dilafgor rishtai ummedini , Kelsa bir kun ne ajab, ul oshnodin ayrilib.	M, 13
	Varna kelmas , deb Dilafgor rishtai ummedni , Kelsa bir kun ne ajab, ul oshnodin ayrilib.	T
6	آدم نہ چوکده هرک اب ینگ ب و سه ای تمازمی ک ورن پادشاه ب ولمز سن یندگنہ ای ای آفت دوران	Ya, 9
	Rikobing bo'sa etmazmi, go'randa har nuchuk odam, Ayo, ey ofati davron, saningday podshoh o'lmaz.	M, 16
	Rikobing bo'sa etmazmi, go'randa har nechuk odam, Ayo, ey ofati davron, saning-la podshoh o'lmaz.	T
7	گہی عالی ای چرہ یوق تور سیزک بی خوب رولار صد ب تی نگدین جان تاپار آرام راحت قاری خان	Ya, 10
	Xo'bravlar ichra yo'qtur siz kabi oligahi Suhbatingdin jon topar, oromu rohat Qorixon.	M, 25
	Xo'bro'lar ichra yo'qtur siz kabi oliy, gahi Suhbatingdin jon topar, oromu rohat Qorixon.	T
8	جفاپ یشہ علاج یم یوق ای شوخ نہ یلای کہ دل خستہ دل افکارہ بری ولہ سلام ای تکیل	Ya, 12
	Netayki ilojim yo'q, ey sho'xi jafu pesha , Dil xasta Dilafgora bir yo'la salom etgil.	M, 23

	Naylayki ilojim yo‘q, ey sho‘xi jafopesha , Dil xasta Dilafgora bir yo‘la salom etgil.	T
9	بوسه دل هوس اي لار انى لعل ل ب يدين عقل اي لار ب يعدد اندي شه ب ول ك ار آ دي ده	Ya, 12
	Dil havas aylar ani la'li labidin bo'sa , Aql aylar beaded andisha bul kor oldida.	M, 30
	Dil havas aylar ani la'li labidin bo'sae , Aql aylar beaded andisha bul kor oldida.	T
10	زيارت ايلماقنى امت احمدگا فرض ايئي س عبة الله غه ي تاي لوک درک يشى ك يم ب ول سه قادر	Ya, 12
	Ziyorat aylamoqni ummati Ahmadga farz etti, Kishikim, bo'lsa qodir ketayluk ka'batullohg'a.	M, 31
	Ziyorat aylamoqni ummati Ahmadga farz etti, Kishikim, bo'lsa qodir gar yetayluk ka'batullohg'a.	T
11	اي لمنى حاخى دي سون دي ب عزت و حرمت اوچون غلط زيارت ينگم لک گ راو قرضدار اولوب ق يلغان	Ya, 13
	El meni hoji desun deb, izzatu hurmat uchun, Mulki garov, qarzdo o'lub qilg'on ziyoring g'alat.	M, 13
	El meni hoji desun deb, izzatu hurmat uchun, Mulki garov, qarzdor o'lub qilg'on ziyoroting g'alat.	T
12	علم دین بی بهره سن ت کرار ای تیب ک نزال حسین غلط خيانات ينگم توتات کوگا اي چکو اي زيب	Ya, 13
	Ilmdin bebahrasan, takror etib "Kanzul Husayn", Ezib ichgu , ham tutatguga xiyonkoring g'alat.	M, 14
	Ilmdin bebahrasan, takror etib "Kanzul Husayn", Ezibichku ham tutatguga xiyonoting g'alat.	T
13	اي دل اف كار طاعت ت قوی غه ق يلما ع تمام غلط گ طاعات ين ق يلما سه ت نگرى ق بول فى ال جم له	Ya, 13
	Ey Dilafgor, toatu taqvog'a qilma e'timod, Qilmasa Tangri qabul, fil-jumla toting g'alat.	M, 14
	Ey Dilafgor, toatu taqvog'a qilma e'timod, Qilmasa Tangri qabul, fil-jumla tooting g'alat.	T
14	ب رنا اي دي ننگ حسنوز گغه کوز ت وي ماس اي دى طرفه انجم يده سرو آت اري تگ ق نى رولار خوب	Ya, 14
	Turfai barno eding, husnungg'a ko'z to'y mas edi, Xo'bravlar anjumida sarvi osoring qani?	M, 33
	Turfae barno eding, husnungg'a ko'z to'y mas edi, Xo'bro'lar anjumida sarvi osoring qani?	T
15	اي لک يذگ يزه ي توشده نامه اغ يار م بارک مد ترم ق يله س يز مون چته واضع اي له آل ييب	Ya, 17
	yetushsa nomai ag'yor muborak ilkingiza, Tavoze' ila olib munga muhtarim qilasiz.	M, 20
	yetushsa nomai ag'yor muborak ilkingiza, Tavoze' ila olib muncha muhtarim qilasiz.	T

16	بیده که ملایق یوق اند گاخلق خوش آداب لایغ با سوزاندیدورر شدکیدی ن اوزگاپری لار اورتانایب	Ya, 17
	Xulqi xush, odoblig‘ bobida kamliq yo‘q ango, Rashkidin o‘zga parilar o‘rtanib so‘z onidur .	M. 16
	Xulqi xush, odoblig‘ bobida kamliq yo‘q ango, Rashkidin o‘zga parilar o‘rtanib so‘zonidur .	T
17	شهنشاه دو عالم اف تخاری اعادتبیری ننگ من عاصدیغه لطف	Ya, 20
	Shahanshoi du olam iftixori, Bering man osiyg‘a lutfi inoyat .	M. 41
	Shahanshoi du olam iftixori, Bering man osiyg‘a lutfi ionat .	T
18	بیغیلسه اول آخر خلاق مخالق میداند یغه با حکم دشر	Ya, 20
	Yig‘ilsa avvalu oxir xaloyiq, Xashr maydonig‘a bo hukmi Xoliq.	M, 41
	Yig‘ilsa avvalu oxir xaloyiq, Hashr maydonig‘a bo hukmi Xoliq.	T
19	ای دل بر عیاریم اولدوم سیر عشق دینگغه دردی ننگنی بیان ای تسم یوق محرم اسراریم	Ya, 21
	Ishqing‘a asir o‘ldim , ey dilbari ayyorim, Dardingni bayon etsam yo‘q mahrami asrorim.	M, 59
	Ishqingg‘a asir o‘ldum , ey dilbari ayyorim, Dardingni bayon etsam yo‘q mahrami asrorim.	
20	رحم ایلا غریب لارغه بزمینگی مخیر قیل جان اوینی زلفونگدین شمعی منور قیل نی فدا ایلا ویصلینگی میسر قیل جانیم اخشام ده جمالینگ نی بر لحظه معطر قیل انگ آت قونچه فاردانه ای تایی سزنگا حالیم نی	Ya, 21
	Rahm ayla g‘ariblarg‘a bazmingni muxayyar qil, Jon uyini zulfungdin sham'ini munavvar qil, Jonimni fido aylay vaslingni muyassar qil, Axshomda jamolingni bir lahza muattar qil, Aytay sanga holimni farvona tong otquncha.	M, 60
	Rahm ayla g‘ariblarg‘a bazmingni muxayyar qil, Jon uyini zulfungdin sham'ini munavvar qil, Jonimni fido aylay vaslingni muyassar qil, Axshomda jamolingni bir lahza muattar qil, Aytay sanga holimni fardona tong otquncha.	
21	دال اولدی الف قدیم ایام فراقینگده تازنگ آت قونچه پنهانه دیب خبر المای سن	Ya, 22
	Dol o‘ldi alif qaddim ayyomi firoqingda, Na deb xabar olmaysan nihona tong otquncha.	M, 29
	Dol o‘ldi alif qaddim ayyomi firoqingda,	T

	Na deb xabar olmaysan pinhona tong otquncha.	
22	اولدوم ي راغاي مدى نه ق يلاى جانم و ضدل ي ن گغه ب زم ي ن گ گ نى ك و رار داي م ب ي گ گ نه تانگ ات قونچه	Ya, 22
	Emdi na qilay jonim vaslingg'a yiroq o'ldum, Bazmingni ko'rar doim begona tong otquncha.	M, 29
	Emdi na qilay jonim vaslingg'a yirog' o'ldum, Bazmingni ko'rar doim begona tong otquncha.	T
23	اي شه مد بوب دل ربا ب و دوركه عر ضد يم عجب و صال ي ن گ مد تاج چون گ دا ب ولدوم	Ya, 22
	Arzim budirki , eh shahi mahbubi dilrabo, Bo'ldim ajab visoling muhtoji chun gado.	M, 35
	Arzim budurki , eh shahi mahbubi dilrabo, Bo'ldum ajab visoling muhtoji chun gado.	T
24	ق ضارا دل ب ي ريب ب ر دل ربا غه م ب تلا ب و ل سنگ ت غافل ب رله ب اقماس هجر يد ده آه ف غان اي ت سنگ اول سنگ سنگا هيچ رحم ق يلماس عاشق يم دي ب آس دي ل يب ي و ل يده خانمان لار صرف اي تيب جان لار ف دا ق ي ل سنگ ون دري غا هيچ ب يلماس نار سالار گ اقران ك يلس	Ya, 24
	Qazoro, dil berib bir dilrabog'a muftalo bo'lsang, Tag'ofil birla boqmas hajrida ohu afg'on etsang, Sanga hyech rahm qilmas, oshiqim deb osilib qolsang , Yo'lida xonumonlar sarf etib, jonlar fido qilsang, Darig'o, hyech bilmas norasolarga qiron kelsun.	M, 54
	Qazoro, dil berib bir dilrabog'a muftalo bo'lsang, Tag'ofil birla boqmas hajrida ohu afg'on etsang, Sanga hyech rahm qilmas, oshiqim deb osilib o'lsang , Yo'lida xonumonlar sarf etib, jonlar fido qilsang, Darig'o, hyech bilmas norasolarga qiron kelsun.	T
25	مراد ي غه اي ر ي ش د سون ب اي ب و ل سون ب عضي خوش صورت ب يرلا هم صد بت اهل ن ي كوزماز خوان ب اجماعت هول لا ش د سنگ ك و لوب ب اقب ي ب دلاف گار اي ت گوسي عزت اي سان ب و ل سون ك و ك ار سون ب عضي سي ملا ب ي لان ال فت مقيمي ب ر ن ي چه پ ست آشنالارگ اقران ك يلسون	Ya, 25
	Murodig'a erishsun, boy bo'lsun ba'zi xushsurat, Namozxoni bojamoat, ahli nek birla hamsuhbat, Hazillashsang kulub boqib, Dilafgor, etgusi izzat, Eson bo'lsun, ko'karsun ba'zisi mullo bilan ulfat, Muqimiy, bir necha past oshnolarga qiron kelsun.	M, 55
	Murodig'a erishsun, boy bo'lsun ba'zi xushsurat, Namozxoni bojamoat, ahli neku birla hamsuhbat, Hazillashsang kulub boqib, Dilafgor, etgusi izzat, Eson bo'lsun, ko'karsun ba'zisi mullo bilan ulfat, Muqimiy, bir necha past oshnolarga qiron kelsun.	T
26	خواب غفلت برله او تى عمر و ن گ اي دل ماه سال	Ya, 25

	<p>قېلمادى نىگ صدق يىنگ بې يىلان طاعت يول يىگانە تىقال آيى كوزىدىن بىر تال قىيلىسە طلوع تىبابى گىگى زوال تىلان گىلان نوزال جلال بىر سىنگىدى سى خالى بىرلە حەقە كىل توردون گىمۇ دىب سوزگە ئادە ارمان ارزى ماس</p>	
	<p>Xobi g‘aflat birla o‘tti umrung, ey dil, mohu sol, Qilmading sidqing bilan toat yo‘liga intiqol, Oyu kundin ibrat ol, qilsa tulu', tobgay zavol, Dasti xoli birla borsan tongla nazdi zul-jalol, Tuhfa kelturdungmu, deb so‘rganda, armon arzimas.</p>	M, 46
	<p>Xobi g‘aflat birla o‘tti umrung, ey dil, mohu sol, Qilmading sidqing bilan toat yo‘liga intiqol, Oyu kundin ibrat ol, qilsa tulu', tobgay zavol, Dasti xoli birla borsang tongla nazdi zul-jalol, Tuhfa kelturdungmu, deb so‘rganda, armon arzimas.</p>	
	<p>اوردىم دلده يوق خوف رجا بى نده لىك لافى پىنى من كىبى يوق تور خلاق لار اراكان خطا محو قىل كىو يوردى جىسم آتش نىفس بىلا قل لى نار ابردى پىارب فى حق كىما قلت ناراً كونى برداً انت فى حق خليل</p>	Ya. 26
27	<p>Bandalikda lofni urdim, dilda yo‘q xavfu rajo, Men kabi yo‘qtur xaloyiqlar aro koni xato, Mahv qil, kuydurdi jismim otashi nafsi balo, Qul linori “ibrad” ya robbi, fi haqqi kamo, Qulta naran “kuni bardan” anta fi haqqi Xalil.</p>	M, 50
	<p>Bandalik lofini urdim, dilda yo‘q xavfu rajo, Men kabi yo‘qtur xaloyiqlar aro koni xato, Mahv qil, kuydurdi jismim otashi nafsi balo, Qul linori “ibrad” ya robbi, fi haqqi kamo, Qulta naran “kuni bardan” anta fi haqqi Xalil.</p>	T
	<p>ايدى تاين ايدىل سىنگى دى ياغە دىنى بىر مگىل كىبىر مپىدان يىدە شىپىتاندىك اوزى نىگىدىن كىپى تماگىل امپىدىنگ اوزماگىل دىل افى گارارحم تى حەقدىن مىسكنا شام سحر ياد خدانى قويمىگىل بى نده گىمپىاد خدادىن اوزگە چىندان ارزى ماس</p>	Ya, 28
28	<p>Aytayin, ey dil, senga dunyog‘a dilni bermagil, Kibr maydonida Shaytondek o‘zingdin ketmagil, Rahmati Haqdin, Dilafgor, umiding uzmagil, Miskino, shomu sahar yodi Xudoni qo‘ymagil, Bandaga yodi Xudodin o‘zga chandon arzimas.</p>	M, 46
	<p>Aytayin, ey dil, senga dunyog‘a dilni bermagil, Kibr maydonida Shaytondek o‘zingdin ketmagil, Rahmati Haqdin, Dilafgoro, umiding uzmagil, Miskino, shomu sahar yodi Xudoni qo‘ymagil, Bandaga yodi Xudodin o‘zga chandon arzimas.</p>	T

	<p>كيشيگا سودق يلماس بول جهان نى عيش اي له نوقى چيقارغاي بلكه يولدين مكر اي لان نيرنگ اي له شوقى طوقى لى نى دل افگار توبه قىل تات و شماين بوي نون گىغه تيريكله بركده باريده ايزله حقيقت يارين اي نوقى مجازى لارنى و صدى سوز هجران ينگىغه ارزيرمو</p>	Ya, 29
29	<p>Kishiga sud qilmas bu jahonni aysh ila zavqi, Chiqarg'ay balki yo'ldin makr ilan nayrang ila shavqi, Dilafgor, tavba qil to tushmayin bo'ynungg'a la'n tavqi, Tiriklikda borida izla haqiqat yorin, ey Zavqiy, Majoziylarni vasli so'zi hijroningg'a arzirmu?</p>	M. 58
	<p>Kishiga sud qilmas bu jahonni aysh ila zavqi, Chiqarg'ay balki yo'ldin makr ilan nayrang ila shavqi, Dilafgor, tavba qil to tushmayin bo'ynungg'a la'in tavqi, Tiriklikda borida izla haqiqat yorin, ey Zavqiy, Majoziylarni vasli so'zi hijroningg'a arzirmu?</p>	T
	<p>نيلاي كه قىلدى بزنى دس نيكامو شيدا برك ورمسام جمالين يوق تورقرار اصلا بولدى بهار سد بزه خوش رنگ كه وه صحرا شول آرزو اي كاولان قىلساك اي كن تماشا برگات و شوب شد يريلاب برچينه لىك كلاسكا</p>	Ya, 35
30	<p>Naylayki, qildi bizni husniga mahvu shaydo, Bir ko'rmasam jamolin yo'qtur qaror aslo, Bo'ldi bahor sabza, xushrang ko'hu sahro, Shul orzu ikovlon qilsak ekan tamosho, Bir chinalik kosaga birga tushub shirillab.</p>	M. 40
	<p>Naylayki, qildi bizni husniga mahvu shaydo, Bir ko'rmasam jamolin yo'qtur qaror aslo, Bo'ldi bahor sabza, xushrang ko'hu sahro, Shul orzu ikovlon qilsak ekan tamosho, Purjinalik kilosga (kolyaskaga) birga tushub shirillab.</p>	T
	<p>مى سونوب عاشق اي ليغه بولدى ساغر كوزلار ينگ يتى اقليم كشوريني ايتى مسخر كوزلارينگ</p>	Ya. 39
31	<p>May suzub oshiq elig'a bo'ldi sog'ar ko'zlaring, yetti iqlim kishvarin etti musaxxar ko'zlaring.</p>	M, 47
	<p>May sunub oshiq elig'a bo'ldi sog'ar ko'zlaring, yetti iqlim kishvarin etti musaxxar ko'zlaring.</p>	T
32	<p>زهى معراجينگا بولميش زمين هم سما محتاج كه يعنى گردن علينگا چون عرش علامد تاج رف رفت باد صبا محتاج كوادب آسمانده شفاعت اي لاگ اي لارموديد بان شاه گدامد تاج تمامى عاصى امت لار سدنكاروز جزامد تاج</p> <p>ولدى اولكون سورة طاهانازل ب شائينگ گاسدى سد بحان الذى اسرا محمود صد فاتد ينگ احمد</p>	Ya, 41

	<p>هه مرسل ن بي لار رت به سيدين مرت بنگ اعلا طفيلينگدين بنا بولدى تمامى عالم اشيا مد تاج جنات العلا دم ت شريف اي تار ديب سزگا</p>	
	<p>Zihi me'rojinga bo'lmish zaminu ham samo muhtoj, Ki ya'ni gardi na'lingga chun arshi a'lo muhtoj, Kavokib osmonida rafrafu bodi sabo muhtoj, Shafaat aylagaylarmu debon shohu gado muhtoj, Tamomi osiy ummatlar sanga ro'zi jazo muhtoj.</p> <p>Sani shanninga nozil bo'ldi ul kun surai "Toho", Sifoting Ahmadu Muhammad, subhonallaziy isro, Hama mursal nabilar rutbasidin martabang a'lo, Tufaylingdin bino bo'ldi tamomi olamu ashyo, Qadam tashrif etar deb senga jannatul-a'lo muhtoj.</p>	M, 42
	<p>Zihi me'rojinga bo'lmish zaminu ham samo muhtoj, Ki ya'ni gardi na'lingga chun arshi a'lo muhtoj, Kavokibi osmonda rafrafu bodi sabo muhtoj, Shafaat aylagaylarmu debon shohu gado muhtoj, Tamomi osiy ummatlar sanga ro'zi jazo muhtoj.</p> <p>Sani sha'ningga nozil bo'ldi ul kun surai "Toho", Sifoting Ahmadu Mahmud, subhonallaziy isro, Hama mursal nabilar rutbasidin martabang a'lo, Tufaylingdin bino bo'ldi tamomi olamu ashyo, Qadam tashrif etar deb senga jannot ul-a'lo muhtoj.</p>	T

Dilafgor she'rlari matnidagi o'zgartirishlarning ikkinchi turi **misra, bayt va bandlarda** uchraydi. Ular nisbatan kamroq.

	<p>گ اهاگ ر مم کن ای سه جانا خماریم دف ع یغه جام یزنگدین لعل اول دم بدم ی ننگل یغ پوسهک رم قیل</p>	Ya, 11
1	<p>Agar mumkin esa, jono, xumorim daf'ig'a gohi, Karam qil bo'lsa neklig', umidim ul la'l jomingdin.</p>	M, 26
	<p>Agar mumkin esa, jono, xumorim daf'ig'a goho, Karam qil bo'sa yanglig', dambadam ul la'li jomingdin.</p>	T
2	<p>دل فکارا یق رسم ج به ن گده هی دا دور اوکه آشنا یق شویو سی شاند یز گده پیدادور اوکه ای ک بی جنون یز گنی رخ شانی بو عالم اهل یغه مطلع خورشید عالم دین مزیادور اوکه صحبتینگ بولسه میسر هر کیمه یادور اوکه ای لاگ انده لطف ال فاض ینگ مح ای الف قامت چیک یب شم شاند خلی یز گنی بوکون کور سات یب قیلغیل خجل گل لارنی زی بادور اوکه باغ حسنونگ صفحه سیده مثل ریحاندور خطینگ</p>	Ya, 19

	<p>کوزلاری ننگدین آهولار شرمنده ر سوادور اوکه خالق ای تور کوز دین گان شهلا بولورمو مونچه هم هکزا و صد فینگ جهان اهل یغه اف شادور اوکه ی ملاحت تخته تیده مئل فریدون شاه سین حشم تینگ گویا سکندر برلا دارادور اوکه نام نیکینگ یادای تیب خسته دل اف گار بیدقرار مددینگاتیل آچتی باعث سدنگا شیدادور اوکه</p>	
	<p>Joriy yozuvdagi nashrda mazkur g‘azal tushib qolgan</p>	<p>M</p>
	<p>(Dilafgor)liq¹ rasmi jabhangda huvaydodur, uka, Oshnoliq sha'ningda paydodur, uka. Oy kabi jununingni raxshoni bu olam ahlig‘a, Matla'i xurshidi olamdin muzayyodur, uka. Suhbating bo‘lsa muyassar har kima, Aylaganda lutfu alfozing muhayyodur uka. Ey alifqomat, chekib shamshod naxlingni bu kun, Ko‘rsatib qilg‘il xijil gullarni zebodur, uka. Bog‘i husnung safhasida misli rayhondur xatting, Ko‘zlarindin ohular sharmanda, rasvodur, uka. Xalq aytur: Ko‘z degan shahlo bo‘lurmu muncha ham, Hakazo vasfing jahon ahlig‘a ifshodur, uka. Ey malohat taxtida misli Faridun shohsen, Hashmating go‘yo Sikandar birla Dorodur, uka. Nomi neking yod etib xasta dilafgori beqaror, Madhinga til ochti boisi sanga shaydodur, uka.</p>	<p>T</p>

Shu o‘rinda shoir Dilafgorning “Gulshani Dilafgor” to‘plami noshirlari mashaqqatli va xayrli ishni amalga oshirganliklarini ta’kidlash xohlardik. Mumtoz adabiyotimiz an’analarining davomchilaridan biri bo‘lmish Dilafgor adabiy merosi haqidagi to‘liq ma’lumotni ana shu to‘plamdan olish mumkin. Lekin nima bo‘lganda ham ana shu to‘plam va shoir toshbosma devonini qiyosiy o‘rganish natijalari joriy yozuvdagi nashrda ayrim kamchiliklar borligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, shoirning:

Dilafgorliq rasmi jabhangda huvaydodur, uka,

Oshnoliq sha'ningda paydodur, uka -

deb boshlanadigan g‘azali, joriy yozuvdagi nashrdan umuman tushib qolgan. Kuzatishlarimizdan ayon bo‘lishicha, “Gulshani Dilafgor”ning toshbosma

¹ Мазкур байтда, негадир, “Дилафгорлик” сўзи “лик” сўзи билан бошланган.

nusxasida shoirning mazkur she'riga o'xshash yana bir g'azal mavjud. Mazkur she'r:

Diydam uzra maqdamingiz naqshi po bo'lsun, ukam,

Ko'zlarimg'a xoki poying surmaso bo'lsun, ukam -

matla'li g'azaldir. Nashrga tayyorlovchilar bu ikki she'rni bir-biridan adashtirganlar yoki bu holga takror yozilgan she'r sifatida qaragan bo'lsalar kerak. Nimagadir, ushbu she'r joriy yozuvdagi to'plamga kirmay qolgan. Noshirlar to'plamdagi she'rlarni tabdil qilishda bir xil prinsipga tayanganidan bunday nuqsonlar yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Jumladan, Yakovlev nashrida:

G'aribmen, benavoman, g'am bila qadim duto, yo Rab,

Junun dashtida yotgan muztarib holim tabo, yo Rab, -

bayti bilan boshlangan she'r bo'lsa, joriy yozuvdagi nashrda esa, Payg'ambarimiz (s.a.v.) vasf qilingan :

Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,

Xudo Qur'onda aydi vasfinga "Yosin" ilan "Toho", -

baytlari bilan boshlangan na't-g'azalni joylashtirilgan. Va, albatta, toshbosma nashr bilan joriy yozuvdagi nashrdagi she'rlar ketma-ketlikda joylatirilmaganligi natijasida yuqorida qayd qilingan "Dilafgorliq rasmi jabhangda huvaydodur, uka..." g'azali keyingi nashrga kirmay qolgan.

"Sir emas, buyuk o'tmishga ega bo'lgan millatimiz XIX asrga kelib tanazzul jarayonini boshdan kechirdi. Furqat Toshkentda yashar ekan, rus maktab-maorif tizimini ko'rib hayratlandi. O'zimizniki bilan taqqoslab, taraqqiyotdan nechog'lik orqada qolganligimizni angladi. Taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko'tarish zarurligini tushunib yetdi. Telefon, telegraf, gazeta, vistavka, elektr energiyasi kabi o'sha payt uchun yangilik hisoblangan hodisalarning millat hayotiga kirib kelishini xohladi. "Jahon basti kushodi" – jahondagi barcha mushkulotlarni yechish yo'li ilm-ma'rifatda deb bildi. Shunga ko'ra, ayrim tadqiqotlarda aytilganidek, chor Rossiyasining mustamlaka siyosatini emas, rus xalqining o'sha paytdagi yuksalishga yuz tutgan madaniyatini targ'ib etdi. U Rossiyaning ilm-fan, sanoat

sohalarida erishgan yutuqlariga havaslandi. Shunday madaniy daraja, shunday yuksalish bizda ham bo‘lishini orzu qiladi”¹.

Furqat orzu qilgan taraqqiyot mahsullari sirasiga telegraf, telefon, fotografiyalar bilan birga purjinali kolyaska (brichka) ham kirar, mazkur purjinali kolyaskada sayr qilish mahalliy aholiga ham bir olam zavqu shavq bag‘ishlagani sir emas. Taraqqiyparvar shoir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat mazkur tamaddun samaralarining yurt hayotida jiddiy o‘zgarishlar yasashini bilgan edi. Furqat g‘azaliga muxammas bog‘lagan shoir Dilafgor ham quyidagi g‘azalida o‘z salafi g‘oyalarini davom ettirib, bog‘u rog‘larga bahor nafasi to‘lganda purjinali kolyaskada sayr qilishni ixtiyor etgan bo‘lsa ne ajab:

Naylayki, qildi bizni husniga mahvu shaydo,
Bir ko‘rmasam jamolin yo‘qtur qaror aslo,
Bo‘ldi bahor sabza, xushrang ko‘hu sahro,
Shul orzu ikovlon qilsak ekan tamosho,
Purjinalik kilosga (kolyaskaga) birga tushub shirillab.

Ushbu bandning joriy yozuvdagi variantida **“Purjinalik kilosga”** so‘zi **“Bir chinalik kosaga”** tarzida tabdil qilingan. Bunday anglashilmovchilikning yuzaga kelish sabablari bor, albatta. Ma'lumki, arab grafikasiga asoslangan yozuvimizda “p” harfi “b” tarzida, kotiblarning yozuv nuqtalarini ham o‘z joyiga qo‘ymay ketishi, hatto umuman nuqtalarning bo‘lmasligi ham tabdilni qiyinlashtirishi mumkin va bu tabiiy hol sanaladi.

Yana bir jihat. “Gulshani Dilafgor” to‘plamiga kiritilgan ikki she'r orasiga chegara qo‘yilmaganidan ikki she'r bitta bo‘lib ketgan. Ya'ni:

*“Gulchehralarni go‘yo sultonidur,
Husn mulkini amiri, xusravu xoqonidur”*²,-

matla'li g‘azal bilan:

*“Go‘zal mahvashlar ichra sen kabi hurliqo bo‘lmaz,
Qiyomingla nechun tashbih qilam tubo raso bo‘lmaz”*¹

¹ Жабборов Н.А. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: филол. ф.д... дисс. – Тошкент: 2004. – Б. 13.

² Маматқулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси ҳақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент.: MUMTOZ SO‘Z. 2011. – Б. 7.

deb boshlanadigan gʻazal orasida “**Va lahu ayzan muvashshah**” degan shartli ravishda qoʻyiladigan chegaralovchi soʻz tushib qolgan.

Taʼkidlash kerakki, Dilafgor sheʼrlari matnida uchraydigan bu tarzda tafovutlar shoir asarlarining mavjud nashrlarini tanqidiy oʻrganish, har bir sheʼrini misrama-misra muqoyasa etish, ularning asliyatga har jihatdan muvofiq keladigan matnlarini tayyorlash singari vazifalarni kun tartibiga qoʻyadi.

Ushbu bobdagi ilmiy izlanishlar natijalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Dilafgor toʻplamidagi nazmiy asarlar matni 1) **tovushlar va soʻzlarning** oʻzgarishi; 2) **misra, bayt va bandlarning** oʻzgarishi tarzidagi ilmiy tasnif asosida qiyosiy tahlil etildi. Qisqartirishlar sheʼriy asarlar matnining muayyan qismiga: bayt, band yoki butun matn tarkibiga oid ekani aniqlandi.

2. Dilafgorning bir-biriga oʻxshash gʻazallar yozgani bois ulardan baʼzilari tabdil qilinmay qolgan. Ayri sheʼrlar orasida “va lahu ayzan” kabi shartli chegaralovchi soʻzlar qoʻyilmaganlidan ikki lirik asar qoʻshilib, bir butun holda berilgan.

¹ Маматқулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси ҳақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент.: MUMTOZ SOʻZ. 2011. – Б. 7.

II BOB. DILAFGOR LIRIKASINING MAVZU KO'LAMI. SHOIR IJODIDA BADIY MAHORAT MASALALARI

2.1. Shoir lirikasining mavzu ko'lami

Shoir Dilafgor she'riyati mavzular bo'yicha klassifikatsiya qilinsa, adib estetik ideali qanday yo'sinda o'sib borganligini kuzatish imkoni tug'iladi. Shoirning o'z hisobidan Yakovlev tipografiyasida nashr etilgan "Gulshani Dilafgor" to'plamiga 23 g'azal, 20 muxammas, (1 muvashshah), 3 musaddas, (1 tarje'band), 1 chiston va 2 fard kiritilgan.

Bu haqda Dilafgor she'rlarini nashrga tayyorlagan Adham Mamatqulov va Jaloliddin Jo'raevlarning shoir ijodi yuzasidan bildirgan quyidagi fikrlari ayni haqiqatdir: "Dilafgorning ma'lum she'rlari mumtoz adabiyotda shakllangan an'naviy janr va mavzularda bitilgan. Ularda Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Fuzuliy, Huvaydo, Haziniy kabi ijodkorlar asarlarining ta'siri seziladi"¹. Darhaqiqat, Dilafgor haqiqiy musulmon farzandi, qolaversa, shoir sifatida o'z salaflariga ergashgan.

"Dilafgor she'riyati Haziniy she'rlariga yaqin turadi", – deb yozgan edi Po'lotjon domla Qayyumiy, shoir ijodiga mumtoz adabiyotimizning qaysi vakili ta'siri ko'proq ekanligini qayd etib. Qayyumiy domlaning bunday xulosaga kelganini quyidagi omillar bilan bog'lash mumkin:

*Ishqing o'tig'a, jono, bag'rimni chu dog'larman,
Tig' ostida o'lmog'ni Tohir kabi chog'larman,
Hajringda Dilafgordek vaslingni so'rog'larman,
Naylayki ilojim yo'q, har ko'chada yig'larman,
Tor o'ldi Haziniyg'a Farg'ona tong otg'uncha.*

Birinchidan, bu g'azal o'z davrida juda mashhur bo'lgan. Hatto Mirzakalon Ismoiliy ham o'z romanini "Farg'ona tong otguncha" deb nomlagani ham bejiz emas edi. Haziniyning "Farg'ona tong otg'uncha" g'azaliga Dilafgorning muxammas bog'lagani Po'lotjon domla Qayyumiyning yuqoridagi xulosaga

¹ Маматқулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси ҳақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент.: MUMTOZ SO'Z. 2011.– Б. 7.

kelganiga undagandir, ehtimol. Qolaversa, “Gulshani Dilafgor” to‘plami noshirlarining quyidagi xulosalari ham fikrimizni tasdiqlaydi:

“Shubhasiz, Muqimiy, Xislat, Kamiy kabi shoirlar ishtirokidagi adabiy suhbatlar Dilafgor dunyoqarashi, ijodidagi rang-baranglikning shakllanishiga ham zamin bo‘lgan. Jumladan, uning asarlarida Muqimiy hajviyoti, Xislat va Kamiylarning millatparvarlik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan hamohang misralarni ham uchratamiz”¹.

“Gulshani Dilafgor”dagi lirik asarlarni o‘rganish asnosida shu narsaga guvoh bo‘ldikki, shoir madrasa tahsilini ko‘rgan fozil, nuktadon, she'r ilmidan xabardor inson bo‘lib, asarlarida o‘z iste’dodi va salohiyatini ko‘rsata olgan. Dilafgor o‘zbek mumtoz she'riyatida shoirlarga yo‘ldosh bo‘lib kelgan mavzularni chetlab o‘ta olmadi. U ham o‘zidan oldin qalam tebratgan salafлари an'analarini davom ettirishda o‘z davri ilg‘or g‘oyalariga tayandi. Shoir she'riyatining mavzu ko‘lami keng va rang-barangdir. Dilafgor lirik asarlarining kattagina qismini g‘azallar tashkil qilgan bo‘lib, ular ifoda shakli hamda mavzusiga ko‘ra ham turlichadir.

Ma'lumki, Dilafgor yashagan davr adabiyotimiz tarixida “Milliy uyg‘onish davri” deb yuritiladi. Albatta har bir ijodkor asarida u yashagan davr, muhit qaysidir jihati bilan bo‘y ko‘rsatadi. Biz bu holni Dilafgor ijodida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shunga ko‘ra shoir lirik asarlari mavzu ko‘lamini *tasavvufiy ruh va mazmunni ifodalovchi, diniy-ma'rifiy, ilm - ma'rifatni tarannum etuvchi, sevgi-muhabbat kuylangan, ijtimoiy muammolar yoritilgan she'rlar* tarzida ajratish mumkin.

Dilafgor Yaratganga chin e'tiqod qilish barobarida o‘z gunohlarini kechirishini so‘rab munojotlar bitgan:

*G‘aribmen, benavoman, g‘am bila qadim duto, yo Rab,
Junun dashtida yotgan muztarib holim tabo(h), yo Rab.
Karamlik podshohim, sendin o‘zga takyagohim yo‘q,
Tilab matlabni keldim dargahingga men gado, yo Rab.*

¹ Маматқулов А., Жўраев Ж. Дилафгор ва унинг адабий мероси хақида. // Гулшани Дилафгор. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z. 2011. – Б. 7.

*Tanimni dog‘i hijron o‘rtadi, jismim kabob o‘ldi,
Bu hijron otashin qildi yurak-bag‘rim ado, yo Rab.*

*Bu g‘am zindonda qoldim, najot izlarga ojizman,
Tufayli zoti poking aylagil g‘amdin raho, yo Rab.*

Dilafgor bir necha munojotlar turkumini yaratdi. Shoir munojotnomalari ham mumtoz adabiyot vakillari asarlari singari bir qator fazilatlardan xoli emas. Ana shunday xususiyatlardan biri - bandaning chin dunyoga imon bilan borishi masalasidir:

*Beadad qilg‘on gunohim barchasi senga ayon,
Hojat izhor emastur bir-birin qilmoq bayon,
Fe‘lu atvorimg‘a loyiq jurmu isyonim garon,
Iltijo qildim bahaqqi jumlai payg‘ambaron,
Aylasam rihlat bu olamdin, yiborg‘il boiymon.*

*Bandalik lofini urdum, qilmisham koni zarar,
Yo‘q vale sha‘nimda hyech toatu ibodatdin asar,
Nafsi shayton birla bo‘ldum, dilda yo‘q xavfu xatar,
Ey Xudoyo, sen erursan osiylarg‘a mehribon,
Aylasam rihlat bu olamdin, yiborg‘il boiymon...*

*Tavba qildim, tavbai maqbuli hidoyat aylagil,
Fazli ehsoning man osiyg‘a inoyat aylagil,
Bul munojoti Dilafgorni ijobat aylagil,
Rabbano, fag‘firlano, ey Xoliqi har du jahon,
Aylasam rihlat bu olamdin, yiborg‘il boiymon.*

Musulmon Sharqida chahoryori bosafolar aytgan hikmatli gaplari mazmunida asarlar bitish an'anaga aylanganligi ma'lum. Masalan, Hazrati Ali (karamallohu vajhahu)ning "Nasr ul-laoliy" asaridan ilhom olgan mutafakkir shoir

Alisher Navoiy o‘zining “Nazmu-l-javohir” deya so‘z duru javohirlarini tergan. Dilafgor ham Hazrati Abu Bakr Siddiq munojotlariga taxmis bog‘lagan. Bu taxmis shoirning Allohga bo‘lgan chin tavbasi, tavallosi, ixlos bilan aytgan munojoti sifatida jaranglaydi.

*Kech gunohimni bahaqqi Hazrati Odam xalil,
Aylama mahshar kuni sharmandai xoru zalil,
Dargohingdin iltimosim shul bahaqqi Jabrail,
Xuz bilutfik, ya Ilahiy, man lahu zodu qalil,
Muflisan bis-sidqi ya'ti 'inda babak, ya Jalil.*

*(Ey Ilohim, oz zodu rohilasi bor bandangni o‘z lutfingga ol,
Senga ishongan holda eshingga bosh urib keldi, yo Jalil¹)*

*Jurmu isyonig‘a qildi tavba bandang, yo rahim,
Ayla tavfiqul hidoyat birla oni mustaqim,
Qilmag‘il, yo rab, ani tongla sazovori jahim,
Zanbuhu zanbun 'azimun fag‘firiz-zanbal-'azim,
Innahu nahsun g‘aribun muznibun abdun zalil.*

*(Gunohi katta bo‘lgan bandangni barcha gunohini kechirgil,
Chunki u, bechora, g‘arib, gunohkor, xor bandangdir)²*

Dilafgor payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga chin ummat ekanidan sarvari koinotga bag‘ishlab munosib na't bag‘ishlaydi.

*Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,
Xudo Qur'onda aydi vasfinga “Yosin” ilan “Toho”.*

*Jamoli nuri “Vash-shams”ki, mozog‘ul-basar hazrat,
Muborak gesui hazratki, “Val-layl iza yag‘sho”.*

¹ Tarjimalar “Gulshani Dilaфgor” noширлариники.

² Gulshani Dilaфgor. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2011. – B. 50.

*Risolat tojdori, shahdu shakar ul guftori,
Base sha'nida "Kavsar" surasi, haq aydi "A'tino".*

*Muborak maqdamidin bo'ldi olam g'arqai rahmat,
Ketib zulmat jahondin ro'shnolik ayladi paydo.*

*Tamoman anbiyolar shahsuvori sayyidi olam,
Gadoyi ostoni bo'lsa yuz Iskandaru Doro.*

Dilafgor ijodining mumtoz adabiyotimiz namunalaridan oziqlanishi tabiiy hol bo'lib, Mashrab she'riyati ham unga behad oziq berganini ta'kidlash kerak. Ma'lumki, Mashrab adabiyotimiz tarixida o'ziga xos yo'nalishda ijod qilgan hamda "Qalandariya" suluki asoschilaridan hisoblanadi. Mashrab ijodi ilohiy ishqni kuylovchi she'riyat ekani ham barchaga ma'lum. Uning:

*Har kishining dardi bo'lsa yig'lasin yor oldida,
Qolmasin armon yurakda etsin izhor oldida, -*

g'azaliga Dilafgor quyidagicha tazmin bog'lagan:

*Telba ko'nglum ko'z tutar, fursat topib yor oldida,
Aylasam hijron g'amin fil-jumla izhor oldida,*

*O'rtanib kuysam tong ermas, rashkdin ahboblar
G'ayrlar bazmi Skandar tuzsa dildor oldida.
Vah nechun o'lmay tiriklay, shomdin to subhidam,
Bo'lsalar doim raqib eli chamanzor oldida.*

*Har zamon etsam tavoze', yer o'pub qilsam salom,
Bir kalomi xush eshitmayman vafodor oldida.*

*Dil havas aylar ani la'li labidin bo'sa,
Aql aylar beadam andisha bul kor oldida.*

*Aytingiz, ahboblar, rahm etmasa holim ko'rub,
Hajrida qilsun shahid qonim to'kub yor oldida.*

*Kuymasunmu notavon joni, Dilafgor, ohkim,
Suhbat etsa doimo ul sho'x ag'yor oldida.*

Dilafgor ijod namunalari ham o'z zamondosh shoirlari she'rlari kabi millat tuyg'usini shakllantirishda o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning millat haqidagi she'rlari Hamza, Abdulla Avloniylarning shu mavzudagi she'riyati bilan hamohang:

*Tun-kechalar choyxonada aytib hamisha safsata,
Ko'k choy ichib, shilqillashib hyech ish qilolmaymiz hanuz.*

Yoki yana bir she'rida ilmni tutgan taraqqiyotdan mosivo qolmasligini quyidagicha bayon etadi:

*Simsiz havoda teligrof yurguzdi ilmu fan ilan,
Biz bodparak, bedonadin o'zga bilolmaymiz hanuz.*

*Ul Yo(v)rupo odamlari ilm yo'lig'a aylar jadal,
Bizlar chafan, ko'krak ochuq, mahram bo'lolmaymiz hanuz.*

Bu g'azalda Hamza she'rlariga xos hamohanglikni kuzatish mumkin. Ma'lumki, Hamza Hakimzodaning bir qancha ijtimoiy-siyosiy she'rlarida yevropa ilm tufayli borgan sari taraqqiyotga erishayotganligi ta'kidlanadi. Jumladan, shoirning 1914 yilda yozilgan "Vatandoshlarima xitob" she'rida bunday deyiladi:

*G'aflat uyqusidin ko'zung och, boq zamona,
Ilm ila maorif tutuni to'ldi jahona,
Soldi hama millat bu maorifga xazona,
Biz millat etub or ila nomusi bahona,
Na maktaba ilm o'ldi, na bozorda tijora,*

Xushk o'ldugimiz bo'sidin bo'ldi kasolat.¹

Hamza ham boshqa jadidlar singari millatni g'aflat va jaholatdan uyg'otishni maqsad-matlab deb bildi, xalqni basoratga – dunyoga ochiq ko'z bilan qarashga da'vat etdi, ilm ila maorifdan bahra olishga chaqirdi², – deya to'g'ri ta'kidlaydi Shermuhammad Amonov nomzodlik dissertatsiyasida.

Adabiyotshunoslik lug'atida o'zbek she'riyati haqida quyidagi fikrlarga duch kelamiz: “Dastlabki g'azallar, asosan, ishq-muhabbat mavzusida yaratilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning mavzu doirasi muttasil kengayib borgan va pirovardida mavzu jihatidan cheklovlardan butkul forig' bo'lgan. Shuning uchun ham Sharq she'riyatida g'azal mavzusiga ko'ra g'oyat rang-barang bo'lib, bu jihatdan uni oshiqona, orifona, rindona, hajviy, publitsistik, axloqiy-talimiy kabi turlarga bo'lish mumkin³”.

Dilafgor adabiy merosining ham aksariyatini ishqiy g'azallar tashkil etsada, kezi kelganda shoir boshqa turlarga ham murojaat qila borgan.

XX asr boshlarida fotografiyaning kirib kelishi g'azal janrining bir qator yangiliklar bilan boyishiga sabab bo'lgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Lirik qahramonning qalbi muhabbatga limmo-lim bo'lganida yorning surati unga yanada qaynoq ilhom bergan bo'lsa ne ajab.

Iltifot aylab yubormishsan, nigoro, surating,

Yaxshi soatda kelib tegdi, diloro, surating.

Sirri asrorim nihon erdi ko'ngil ganjidakim,

Boz qildi ishqimi el ichra ifsho, surating.

Ro'zu shab Haqdin tilar erdim sani ko'rmaq uchun,

Hosil o'ldi nisfi matlab, emdi holo surating.

¹ Xamza. Vatandoшларима хитоб. // Садои Туркистон, 1914 йил 27-сон. (Бу шеър “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасининг 1994 йил 11 март сониди адабиётшунос И. Ғафуров томонидан эълон қилинган).

² Амонов Ш.Н. Хамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи: филол. фанл. номз... дисс. – Т.: 2010. – Б. 10.

³ Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 386.

Lirik qahramon yorsiz bir nafas ham nafas olishi qiyin. Mudom uning xayoli bilan yashaydi. Dilafgorning “Sensiz” radifli g‘azali o‘zining o‘ynoqiligi, yengil o‘qilishi bilan ajralib turadi:

Bo ‘ldi jahon ko ‘zimg ‘a toriku tiyra, ey voh,

Bo ‘lmas kifoya xurshid, ey gul‘uzor, sensiz.

Yuz g‘amza birla kelsa qoshimg ‘a mahliqolar,

Ermis pisand menga chashmi xumor sensiz.

Jonimda yo ‘q halovat, har dam fig‘on chekarman,

Yodingda kecha-kunduz Majnunshior sensiz.

Ohu ko ‘zing xayoli shomu sabo dilimda

Hyech manda yo ‘q, nigoro, sabru qaror sensiz...

Shoir g‘azallarida ilohiy muhabbat, so‘fiyona sevgi motivlari ham kuylanadi. Shoir aksariyat she‘rlarida yer go‘zaliga murojaat qilayotgandek bo‘lsa ham, aslida Yaratganga bo‘lgan sevgisini izhor etadi. Albatta, shu o‘rinda “Al-majozu qantaratul-haqiqat” (“Majoz haqiqatga olib boruvchi ko‘prikdir”) ekanligini unutmazlik lozim:

Darig‘o, umrim o‘tdi, ey pari, hajringda jono deb,

Qarong‘u bo‘ldi olam ko‘zlarimg‘a, sho‘xu barno deb.

Bo‘libman misli Majnun, kil tarahhum, yori jononim,

Yutay tokayg‘acha qon laxta-laxta, oh Laylo, deb.

Qo‘yibman ostonangg‘a boshimni, ey jafopesha,

Jahon mahvashlaridin sen pari paykarni a‘lo deb.

Dilafgorning yuqorida ta’kidlaganimizdek, “majoziy yo‘l bilan boruvchi ilohiy ishq” to‘g‘risidagi baytlari talaygina. Ulardan yana biri quyidagicha:

*Arsai olamda, jono, orazing chun oftob.
Lam'ai anvor aksing ko 'kda go 'yo mohtob.*

*Bu latofatda erursan olam ichra benazir,
Qomating diljo ', xiroming kabk, ey olijanob...*

*O't solur jodu ko 'zung boqsang karashma birla gar,
Nargising jallodu qotil, qoshlaring tiri itob...*

*Jonu dil isoring o 'lsa, xasta qulg 'a ne ajab,
Orzu qo 'ysang boshing 'a senga men bo 'lsam turob....*

*Nakhati zulfig Dilafgor gardanig 'a ayni vasl,
Bo 'lsa misli moru ajdar, ey sumanso, pechu tob.*

Adabiyotimiz tarixida Fuzuliydan bahramand bo'lmagan turkiy tilli ijodkor bo'lmasa kerak. Bir vaqtlar Fuzuliyning shirin zabonligidan uning tilida g'azallar yozish ham urfga kirgan edi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ham Fuzuliy dahosiga tan berib:

*Mening shoirligim yolg 'onidir ammo,
Fuzuliy she'riga oshiqligim rost, -*

deb yozgan edi. Dilafgor ham salaflari singari fuzuliyona g'azallar bitib, ushbu an'anani qaysidir ma'noda davom ettirdi:

*Go 'zal mahvashlar ichra sen kabi hurliqo bo 'lmaz,
Qiyomingla nechun tashbih qilam tubo raso bo 'lmaz.*

*Rikobing bo 'sa etmazmi, go 'randa har nuchuk odam,
Ayo, ey ofati davron, saningla podshoh bo 'lmaz...*

*Xaloyiq bir-birina so 'ylashur husnung ko 'ran hola,
Duoya qo 'l ochib bo 'yla jahonda dilrabo bo 'lmaz.*

*Iki ohu g'izolon ko 'zlarining hajrin chekanlar der:
Go 'zallar bo 'lsalar ham bo 'ylakim chashmi siyoh bo 'lmaz.*

*Nigoro, la'li nobing vermayam men Xizri hayvona,
Hayotim ketdukinda g'ayri la'ling hyech davo bo 'lmaz.*

*Dami nozu tag 'oful qildug 'ingda men Dilafgora,
Na deb hijroning bul xasta ko 'ngul oshno bo 'lmaz.*

Iso payg'ambarning o'likni tiriltira olish mo'jizasi mumtoz adabiyotimizda yorning so'zlari oshiqqa jon bag'ishlashi yo tiriltirishi kabi sifatleri majoziy obraz bo'lib ko'chgan. Dilafgorning yuqoridagi *“Nigoro, la'li nobing vermayam men Xizri hayvona”* satrlarida esa *“Hayot Xizri”* deya majoziy obraz olingan. Ibn Sino *“She'r san'ati”* risolasida bu haqda shunday yozadi: “... she'riyatdagi har bir masal va afsona o'zidan boshqa bir narsaga tashbeh qilib olingan bo'ladi, yo bo'lmasa o'sha narsaning o'zini qanday bo'lsa, o'sha tarzda olmasdan, balki aksincha, uni birmuncha o'zgartirilgan holatda olinadi. Narsaning o'zi qanday bo'lsa, o'shandayligicha olmasdan, uni sal o'zgartirilgan tarzda olinganiga istiora yo majoz deyiladi. She'r mana shu istiora bilan majozning tarkibidan hosil bo'ladi”¹.

Nazira (arabcha نازيره – o'xshash, o'xshash narsa, namuna) – o'zga shoir she'riga ergashish yo'li bilan, unga o'xshatma tarzida yoki javob sifatida yaratiluvchi she'r. Sharq adabiyotida nazira bitish ancha keng tarqalgan, zamondosh shoirlar yoki salafilar bilan o'ziga xos ijodiy musobaqa tusini olgan an'anadir².

*Nega, nechun manga siz munchalik jafo qilasiz,
G'amingiz ila yurak-bag'rimi ado qilasiz*³.

Hamza ijodidan o'rin olgan yuqoridagi matla' bilan boshlanuvchi she'rga shoir Dilafgor nazira bog'lagan va u quyidagicha:

¹ Абу Али ибн Сино. Шеърсанъати. Саломон ва Ибсол. – Т.: Фан. 1980. – Б. 98.

² Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 200.

³ Амонов Ш.Н. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи: филология фан. номз... дисс. – Т.: 2010. – Б. 15.

*Itobu noz ila boqib mani ado qilasiz,
Tarahhum aylamayin holima jafo qilasiz.*

*Ziyoli orazingizg'a tasadduq o'lsun jon,
Ko'ngul uyini qachon lutfilan ziyo qilasiz?*

*Xaloyiq ichra mane xastaga nazar solmay,
Raqib suhbatida kayfingiz safo qilasiz.*

*Na jurm o'ttiki mandin siz shahanshog'a,
Chekib qabog'ingizi doimo jafo qilasiz?*

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da qayd etilishicha, “o‘zga shoir asariga bog‘langan naziraning taqliddan iborat bo‘lib qolmasligi, shoirning unga ijodiy yondashishi talab etiladiki, bunda mavzuning yanada yorqinroq ifodalanishi va badiiy saviyaning yuksalishi ko‘zda tutiladi”¹. Bu o‘rinda Dilafgor Hamza baytida aytilgan fikrlarni rivojlantirish barobarida badiiy yuksak satrlar ijod qilganligini sezish qiyin emas.

Dilafgor she'riyatining yana bir jihati – haqiqiy musulmon kishining Yaratganga bo‘lgan chin e'tiqodi, maslakda qat'iylikning namoyon bo‘lishidir. Shoir har bir mo‘min kishi bu yolg‘onchi dunyoning hoyu havvaslariga uchmasdan, chin dunyoga tayyorlanib borishi lozimligini uqtiradi. “Takya qil” radifli g‘azalida xuddi ana shunday g‘oyani davom ettirgan shoir mudom Yaratganga takya (tavakkul) qilish kerakligini eslatadi.

*Bandalik shuldur sango, qodir Xudoga takya qil,
O'n sakkiz ming olama qudratnamog'a takya qil.*

*Har nakim kelsa qazodin boshinga sabr aylabon,
Shukr etib shomu sahar ul podshohg'a takya qil.*

¹ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 200.

*Tushsa gar har mushkule qilma birovg'a oshkor,
Mushkiling hal qilg'uvchi mushkulkushog'a takya qil.*

*Charx zulmidin yaqo yirtib o'zing etma halok,
Osiy bo'lsang, sohibi hamdu sanog'a takya qil.*

*Takya qilg'on bandasini aylamas zoe' Xudo,
Yo'lda qolsang yo'l yo'qotib, rahnamog'a takya qil.*

*Har kuni boshingg'a tushsa mehnati ranju alam,
Gardaningni xam qilib, ul Rabbanog'a takya qil.*

*Bebizoatman debon osiyi Dilafgor, g'am yema,
"Yafalullohu ma yasha'" hukmi Xudog'a takya qil.*

“Tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib bordi; fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g'oyalaridan ruhlanganlar. Shuni nazarda tutib, atoqli olim ye.E.Bertels o'tgan asrning boshidayoq qayd etgan edi: “Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan Sharqning o'zini ham anglash qiyin”, – deya ta'kidlagan edi tasavvufshunos olim N.Komilov¹. Shoir Dilafgor ham bir musulmon kishisi sifatida tasavvufiy asarlardan bebahra qolishi, undan ilhomlanmasligi mumkin emas edi.

*Bandasan, ey dil, rizoyi Rabbanoni izlagil,
Ummat o'lsang, sarvari haq Mustafoni izlagil.*

¹ Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: “Movarounnahr” – “O'zbekiston” NMIU. 2009. – Б.4.

*Misli Adhamdek bu olam nash'asini tark etib,
Oh urub yig'lab, haqiqiy podshohni izlagil.*

*Yotma sen tokay bu g'aflat xobida rohat bilan,
Qolmadi fursat, ko'zing och, muddaoni izlagil.*

*Oxirat borg'onda qattig' xalq aro sharmandalik,
Jurmu isyoningg'a sen barham shifoni izlagil.*

*Bandalik lofin urar, sitam fikru avzo'ing g'alat,
Doimo qilg'on gunohingg'a davoni izlagil.*

*Ikki kunlik umringa qilma bino, aytay sanga,
Bevafo ushbu jahon, dorulbaqoni izlagil.*

*Ey Dilafgor, yo'l xatarlik, yo'l adashgan vaqtida,
Qo'l tutarga rahnamo piru hudoni izlagil.*

Dilafgorning ushbu g'azalida "Ibrohim Adham singari podshoh bo'lsang ham bu dunyoning jilvalariga uchma, uni tark et, haqiqiy dunyo rohati senga ko'proq kerak bo'ladi oxiratda" degan g'oya ilgari surilgan bo'lib, bunday fikrlar har qanday davrda ham o'z qimmatini yo'qotmaydi. Shoirning quyidagi she'ri ham ayni shu yo'nalishda bitilgan:

*Bu olam ayshi, ey tan, xasta yotganingg'a arzirmu?
Hayoti jovidoning bir kun o'lganingg'a arzirmu?*

*Bu besh kunluk jahon ichra tamomi mulku ashyolar,
Ketar vaqtida qilg'on ohu afg'oningg'a arzirmu?*

*Tiriklikda bu mingan markabing, ey bandai g'ofil,
Ketib joning, yag'och ot uzra minganingg'a arzirmu?*

*Yurarsan toati Haqdin bo‘lub g‘ofil bu olamda,
Qiyomat dashtida holi parishoningg‘a arzirmu?*

*Ma‘ishatda kechurgon kecha-kunduz ayshi xandoning,
Hisob vaqtida chekkan chashmi giryoningg‘a arzirmu?*

*Bu dunyo izzu johu saltanat, bog‘ila bo‘stoning,
Bo‘lub xoki mazallat ichra yotganingg‘a arzirmu?*

*Gunah birla kechurgan moh-soling osiy Dilafgor,
Borib mahsharda el ichra uyolganingg‘a arzirmu?*

Dilafgor she'rlarida turk elining mashoyixi Yassaviy hikmatlari mavzulari ohangini ham kuzatish mumkin. Inson oxir qilar ishi “to‘rt oyoqli cho‘bin ot”ga tushishi achchiq haqiqat ekanligini tan olmay iloj yo‘q.

Furqatning navbahor, bahor ayyomi haqidagi jo‘shqin, ehtirosli g‘azallari xalqning allaqachon ma'naviy mulkiga aylangan. Shoirning “Bahor ayyomida”, “Fasli navbahor o‘ldi” nomli g‘azallari sevgan yurtidagi bahor go‘zalligi, uning inson qalbida uyg‘otgan boy kechinmalarining tasviridan iborat. Shoir ona yurt tabiatini kuylar ekan, bahor fasliga alohida to‘xtaladi:

*Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar,
Do‘stlar, g‘animatdir, sayr eting gulistonlar.
Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar.
Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni,
Nargis ochibon ko‘zni intizor yoronlar.*

Furqat bu she'rida ham tabiat go‘zalligining sehrli kuychisi sifatida ko‘zga tashlanadi. Gulistonlar sayri g‘animat. Navbahor chehra ochdi. Erta tongda tushgan shabnamdan sabzalar yayrab-yashnadilar. Sahar payti tabiat chiroyiga dil bergan

qahramon nastarin, yosuman, nargis gullarining yuz ko'rsatishini zavq bilan kuzatadi. Momoqaldiroq gurillaydi. Yashin chaqnaydi, tog'lar larzaga kelganday bo'ladi. Qumri va bulbullar nola chekadilar. Gullar, sarvlar, ularga nozu ishva qilib, ular fig'onini yanada kuchaytiradilar. Hayot o'zining rang-barang chiroyi va sermazmun mohiyatini namoyon etadi. Bu misollardan ko'rinadiki, Furqatning hassos qalbi tabiat go'zalligini chuqur sezar, xususan, navbahor navjuvonligidan juda ilhomlanar edi. Shoir ta'sirli sayrlarda mazkur fusunkor chiroy tasvirini yaratdi, uni ulug'ladi. Tabiat manzaralarini kuylash shoir ijodining turli davrlariga to'g'ri keladi. Shoir o'z g'azallarida tabiat go'zalligini nozik did va ruhiy ko'tarinkilik bilan ifodalaydi. O'zining ilg'or dunyoqarashlariga muvofiq holda odamiylik, go'zallikni yuqori darajaga ko'taradi¹.

Tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, ularning qadriga yetish nafaqat musulmonchilikdagina emas, balki insonman degan mavjudotning har biri qalbi qatlariga-da kirib borguvchi bir xususiyat ekanligini anglash qiyin emas. Mumtoz adabiyotimizda "bahoriyot" turkumidagi bir qator ijod namunalari vujudga kelgan. Bu singari she'rlarni Muqimiy, Furqat kabi shoirlar ijodida ko'rish mumkin. Ma'lumki, Furqatning "Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar" g'azali juda mashhur. Dilafgor ham ayni mavzuda ijod qilganini ta'kidlash kerak:

Inoyat birla, jono, sayri sahro aylamaysizmu?

Ko'ngul ko'zgusini g'amdin mubarro aylamaysizmu?

Bahor ayyomi keldi, dashtu sahro lolazor o'lmish,

Qilibon dafi dilgirlik, tamosho aylamaysizmu?

Damodam yuz fasohatda sohib shahdu shakarlarni,

Takallumda itobomiz barpo aylamaysizmu?

O'zingizga berib oro, tulu'i shamsu anvardek,

¹ <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/maqolalar/179-furqat.html?start=16>

Xaloyiqni jamoliingizga shaydo aylamaysizmu?

*Latofatlar bilan bog' ichra gulu rayhonu sunbulni,
Qaddingiz ko'rsatib onlarni rasvo aylamaysizmu?*

*Labingiz bodasidin tashnalab o'lgan qulingizni,
Tarahhum aylab anga ruhafzo aylamaysizmu?*

*Hamisha lof urar ohu qaro nargis binosida,
Suzib siz ham qaro ko'zlarni shahlo aylamaysizmu?*

*Jahon ahli bo'libdur hajringizda turfai majnun,
Nechuk berahmsiz onlarga parvo aylamaysizmu?*

*Ochib gul g'unchadek labni, siqib guldastadek belni,
Kirib bozor aro, bir nav'i savdo aylamaysizmu?*

*Necha muddat Dilafgor oshnolikni umid aylar,
Karam aylab muhabbat rasmin ifsho aylamaysizmu?*

Ushbu fasldagi ilmiy kuzatishlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. "Gulshani Dilafgor" to'plami 23 g'azal, 20 muxammas, (1 muvashshah), 3 musaddas, (1 tarje'band), 1 chiston va 2 farddan iborat.
2. "Gulshani Dilafgor" to'plami noshirlari Dilafgor ijodida Muqimiy, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning ta'siri kuchli bo'lgan degan xulosalarga kelishsada, aslida shoir she'riyatining mavzu ko'lamini ancha kengroqdir. Dilafgorning haqiqiy musulmon farzandi sifatida hazrati Abu Bakr Siddiq munojotlariga taxmis bog'laganligi ham bunga dalildir.

3. Dilafgor gʻazallarida ilohiy muhabbat, soʻfiyona sevgi motivlari ham kuylanadi. Shoir aksariyat sheʼrlarida yer goʻzaliga murojaat qilayotgandek boʻlsada, aslida ularda Yaratganga boʻlgan sevgisini izhor qiladi.

4. Dilafgor fuzuliyona gʻazallar bitib, goʻzal anʼanani davom ettirdi, Furqatning “Fasli navbahor oʻldi...” gʻazaliga bitgan tazmini shoirning bu dunyoning goʻzalliklaridan estetik zavq ola bilish ham kerakligini hisobga olsak, shoir sheʼriyatining mavzu koʻlami yanada kengroq ekanligi maʼlum boʻladi.

5. Shoir milliy uygʻonish davri ijodkori sifatida “uygʻon, millat” deya hayqirdi, sheʼrlarida millatning tanazzulga yuz tutish sabablarini ham koʻrsatishga urindi. Dilafgorning bunday asarlarida millatparvarlik va maʼrifatparvarlik gʻoyalari yorqin aks etganligini alohida taʼkidlamoq lozim.

2.2. Dilafgor she'riyatida badiiy san'atlar

“Gulshani Dilafgor”ni tuzar ekan, shoir Dilafgor ham an'anaga muvofiq o'z salafлари singari to'plamni Oллоhga hamd va payg'ambarga na't bilan boshlaydi. Muhammad (s.a.v.)ga bag'ishlangan na'tning birinchi misrasi: “*Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno...*,”- kabi badiiy baquvvat satrlar bilan boshlanadi.

E'tibor berilsa, sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) o'z diyorida islom dinini yoyishda avvaliga juda qiyinchiliklarga uchragan bo'lsalarda, keyinchalik arab dunyosini islom nuri bilan munavvar qilgan edi. Undan so'ng esa o'sha pok nur ajam mamlakatlari yoritdi. Yuqoridagi misrada ham payg'ambarimizning arab dunyosida shoh kabi islom hukmini yuritganligi, boshqa yurtlarga o'zlari emas, ul zotning munavvar ziyosi yetib borganligi hamda bunday shohgayu bunday mohga ofarinlar bo'lsin, deb taqsinlar o'qilmoqda. Shugina bir satr ham shoirning qanchalik salohiyatga ega ekanini ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, na'tlarda Rasulullohning vasfi-ta'rifi ustunlik qilsa, bu hodisa bilan bog'liq san'at turi ilmi badi'da “iqtibos” deyiladi. Chunki bunday o'rinlarda “mohiyatan muayyan oyat yoki hadisning mazmuni bilan aloqador bo'ladi”¹:

*Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,
Xudo Qur'onda aydi vasfinga “Yosin” ila “Toho”.
Jamoli nuri “Vash-shams”ki, mozog' ul-basar hazrat,
Muborak gesui hazratki, “Val-layl iza yag' sho”.
Risalat tojdori, shahdu shakar ul guftori,
Base sha'nida “Kavsar” surasi, haq aydi “A'tino”.
Muborak maqdamidin bo'ldi olam g'arqai rahmat,
Ketib zulmat jahondin ro'shnolik ayladi paydo.
Tamoman anbiyolar shahsuvori-Sayyidi olam,
Gadoyi ostoni bo'lsa yuz Iskandaru Doro.
Sifoti rahmatan lil-olamin ul sayyidi kavnayn,
Bizingdek osiy ummatga shafokatxohi omanno.*

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Zarqalam, 2006. – Б. 28.

*Deyub Tangrim qilay dargohimga mehmon jismimni,
Yubordi Jabrailni amr etib ul Xoliqi yakto.
O'shal dam Jabrail keldi rasulni xobgohig'a,
Tavoze' birla turdilar surib yuz poyi Ahmadga.
Muborak erdi ul me'roj hazrati osiy ummatga,
Chiqib ul dam haramdin yo'lda Jabrail bo'ldilar hamro(h).
Muhammad hodii olam yetushti masjidi Aqsog'a,
Imom o'ldi tamomi anbiyolarga rasulullo(h).
Minib rafrafga hazrat o'ttilar bir necha manzildin,
Yumub to ko'zni ochquncha yetushti qobi qavsayno.
Harimi kibriyoda Haq taolo birla so'zlashib,
Tamoman muddaosini so'rab ul shohi av adno.
Boshini sajdaga qo'ydi, to'kub ko'zdan sirishkini,
Tilab ummatni jurmini janobi Haqni oldida.
Kirib junbushga ul dam bahri rahmat turfa mavj urdi,
Xudo aydi: gunahkor ummat uchun g'am yema aslo.
Xudo aydi: ey Ahmad, vujuding mahzi rahmatdur,
Mani in'omi ehsonim tamomi osiy ummatga.
Kimiki senga ummat bo'lsa, do'zaxdin qilib ozod,
Makonun manzilini aylagayman jannat ul-ma'vo.
Risalat tojdori mujdai rahmatni oldilar,
Shabi me'roj erdi vasfi subhon al-lazi isro.
Yonib me'rojdin kelganida hazrat zanjiri larzon,
Muborak xobgohi garm erur, ahhobi saddaqno,
Zaboningni Dilafgor, na'ti hazrat birla shakar qil,
Ki, shoyad bir nazar holingga qilsa shohi karramno.*

“Yosin” ila “Toho”, “Val-layl iza yag‘sho”, Haq aydi “A'tino”, “shafloatxohi omanno”, “qobi qavsayno”, “ul shohi av adno”, “subhon al-lazi isro”, “ahhobi saddaqno”, “shohi karramno” kabi qofiya sifatida ishlangan so‘zlar “qofiya bilan bog‘liq poetik usullarning eng qadimiylaridan biri radd ul-matla' yoki

iyto”¹ ekanligi nazarda tutiladi. Iytoning ikki navi ajratiladi: *iytoyi jaliy* (ochiq, ravshan takror) hamda *iytoyi xafiy* (yopiq, yashirin takror). Yuqoridagi na’tda qofiyaning poetik usullaridan *iytoyi xafiy* navi qo‘llanganini kuzatish mumkin.

Musulmon Sharqida lirik asarlar hikmatlarga boy bo‘lishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. “Gulshani Dilafgor” kabi she’riyat guldastalarida ham “o‘git, hikmat va zamonu birodarlardan shikoyat kabi bir nima bila zeb berilgan bo‘l”ishi (“Badoyi’ us-sanoyi”) tabiiy jarayon hisoblanadi. Bu singari o‘git, hikmat va zamonu birodarlardan shikoyat motivi ustunlik qiluvchi she’rlar “*kalomi jomi*” badiiy san’atini yuzaga keltiradi.

Dilafgorning:

*Ahboblar, millat uchun biz jahd etolmaymiz hanuz,
G‘aflat to‘shagida yotib, ko‘zni ocholmaymiz hanuz.*

Yoki:

*Umrung o‘tti, ey dilo, yotma sahar, bedor bo‘l,
Shoh bo‘lsang, xohi gado, yotma sahar, bedor bo‘l.*

Yoki:

*Bandasan, ey dil, rizoyi Rabbanoni izlagil,
Ummat o‘lsang, sarvari haq Mustafoni izlagil.*

Yoki:

*Bandalik shuldur sango, qodir Xudoga takya qil,
O‘n sakkiz ming olama qudratnamog‘a takya qil.*

Yoki:

*Bu olam ayshi, ey tan, xasta yotganingg‘a arzirmu?
Hayoti jovidoning bir kun o‘lganingg‘a arzirmu?*

Yoki:

*Jon agar hamjihati tandur, jondin g‘am yema,
Bu aziz mehmon borida g‘ussai olam yema,-*

matla'lari bilan boshlanuvchi g‘azallari boshdan oyoq “*kalomi jomi*” san’ati bilan muzayyan etilgan.

¹ Исхоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Zarqalam, 2006. – Б. 107.

“*Mazhabi kalomiy*” ma’naviy san’atlardan bo‘lib, nasr va nazmda o‘z matlubining isboti uchun latofat bilan dalil keltirishdan iborat. Dalil aniq bo‘lmog‘i, shuningdek, faraziy bo‘lishi ham mumkin. Navoiy she’riyatidan, xususan, uning g‘azaliyotida fikrni dalillash maxsus san’at sifatida xilma-xil ko‘rinishlarda ishlatilgan.

G‘azalda mazhabi kalomiy ko‘pincha bir bayt doirasida qo‘llanadi. Dalil keltirish turli ko‘makchi so‘z va bog‘lovchilar (nedinki, ne uchunkim, chunkim, ne tong, g‘arib emas, ne ajab, ajab ermas, kimki va h.k.) vositasida amalga oshiriladi¹.

Dilafgor g‘azallarida ham “mazhabi kalomiy” san’ati uchraydi:

*Jonu dil isoring o‘lsa, xasta qulg‘a **ne ajab**,
Orzu qo‘ysang boshing‘a senga men bo‘lsam turob.*

Yoki:

*Varna kesmas, deb Dilafgor rishtai ummedini,
Kelsa bir kun **ne ajab**, ul oshnodin ayrilib.*

Yoki:

*Boshing‘a mehnati hijron, alam hamsuhbatim holo,
Ajabkim tole'imni badligi, baxtim siyoh, yo Rab.*

Yoki:

*Xayoli fikrim hamisha size parivashda,
Ajabki marhamat etmay dag‘i sitam qilasiz.*

Yoki:

*Vah, **nechun** o‘lmay tiriklay, shomdin to subhidam,
Bo‘lsalar doim raqib eli chamanzor oldida.*

Yoki:

*Go‘zal mahvashlar ichra sen kabi hurliqo bo‘lmaz,
Qiyomingla **nechun** tashbih qilam tubo raso bo‘lmaz.*

Yoki:

*Ey xudoyim, qismatingg‘a **kimki** sobir bo‘lmasa,
Men oni mo‘min demayman, loyiqan imon emas.*

¹ Исхоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Zarqalam, 2006. – Б. 32.

Badi'shunoslik ilmida “shoir o‘z fikr va kechinmalarini bayon etish maqsadida turli obraz yoki iboralardan foydalanar ekan, tasvir jarayonida o‘zining oldingi fikrlari (iboralar, obrazlar)dan voz kechib, ularni rad etadi va ularning o‘rniga yangi obraz va iboralarni keltiradi. Go‘yo o‘z maqsadini to‘liq ifodalash uchun ojizlik qilgan ibora va obrazlar o‘rniga yangi, mukammalroqlarini qo‘yib, fikr va kechinmalarni yanada kuchliroq shaklda bayon qil”¹inishi “rujo” san'atini keltirib chiqaradi. E'tiborlisi shundaki, shoir Dilafgorning faqat g‘azallarida emas, balki muxammaslarida ham “rujo” san'atini uchraydi. **Yo** yoxud **yoki** so‘zlarining qo‘llanishi imkoniyatni kengaytirib, badiiy mahobatni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan:

*Misli Majnundek fig‘on etsang yuraging qon etib,
Yig‘lasang shomu sabolar ko‘z yoshing to‘fon etib,
Yoki bulbuldek saharlar nolai afg‘on etib,
Iltijo etsang parilarga fidoyi jon etib,
Bemuruvvat bo‘lsa, ta‘siri duo kam-kam bo‘lur.*

Yoki:

*Yig‘latib bizlarni noshod aylamak maqsud esa,
Yoki lutfila muruvvat aylamak maqsud esa,
Yo raqib so‘zi bilan qayd aylamak maqsud esa,
Murg‘i jon **yo** ko‘nglumi sayd aylamak maqsud esa,
Halqa-halqa tori kokillarni rom aylab keling.*

Yoki:

*Nozanin, vaslingg‘a yetmak nechani haddi emas
Yoki sandin kimsani dam urmaki haddi emas,
Yo Dilafgorni senga so‘z aytmaki haddi emas,
Kecha yo kunduz demak, jono, Kamiy haddi emas,
Xo‘bliqu fursati yodin davom aylab keling.*

D.Jovid ta'rifiga ko'ra, ittifoq san'atining mohiyati shunday: shoir she'rda o'z nomi yoki taxallusini nihoyatda chiroyli ko'rinishda shunday o'rinli ishlatadiki,

¹ Исхоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Zarqalam, 2006. – Б. 49.

o‘quvchi xayoliga bir paytning o‘zida ana shu so‘zning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma'nosi keladi¹. “Dilafgor” so‘zining ma'nosi *dili xasta, dili vayron, ortiq xafagarchilik chekkan*² kabi ma'nolarni bildirishini hisobga olsak, shoir taxallus qo‘llash jarayonida o‘sha vayrona ko‘ngil dardlarini ham aytishga chog‘lanadi:

*Dilafgor osiymen, yo rabbano, holimg‘a rahm ayla,
Umid birla qilibman dargahingga iltijo, yo Rab.*

Yoki:

*Yozdi Dilafgor hasratin, bo‘lsa xato afv aylangiz,
Yoshu qari bir-birimiz hurmat etolmaymiz hanuz.*

Yoki:

*Xurram emas Dilafgor, harchand bazm ko‘rsa,
Ta'sir aylamaydur, ey mahuzor, sensiz.*

Yoki:

*Visolingiz talab aylab borg‘onda Dilafgor,
Urub-so‘kub, “Nari ket!” debon xafo qilasiz.*

Yoki:

*Bu xasta Dilafgor dardi firoqingizga kuyub,
Ramaqqa joni yetushti, nazarni kam qilasiz.*

Yoki:

*Lutfu ehsoningni muzdig‘a Dilafgor ne deyur,
Aylaram xolis duo, aylab tamosho surating.*

Yoki:

*Bebizoatman debon osiyi Dilafgor, g‘am yema,
“Yaf‘alullohu ma yasha” hukmi Xudog‘a takya qil.*

Yoki:

*Netayki ilojim yo‘q, ey sho‘xi jafo pesha,
Dil xasta Dilafgora bir yo‘la salom etgil.*

Yoki:

¹ Исхоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Zarqalam, 2006. – Б. 26.

² Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброхимов). – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – Б. 190.

*Necha muddat Dilafgora nazar solmay, bas, ey dildor,
Mabodo yetdimu sanga zarar ushbu g'ulomingdin.*

Yoki:

*Naylayki qarorim yo'q, rashk o'tig'a o'rtandi,
Man xasta Dilafgora, giryona tong otquncha.*

Yoki:

*Muhammad hurmatidin qil nasib Dilafgora,
Axiri umr dam ichinda tavofi baytulloh.*

Yoki:

*Muhabbat ahlig'a lazzat verar olib o'qug'onda,
Dilafgori benavoni har na aytgan she'ru ash'ori.*

Yoki:

*Xashm etib boqq'ay eding xasta Dilafgora qadim,
Ey sumanbar, aytgil emdi, fe'lu atvoring qani?*

Yoki:

*Dargohingga ojiz munlug' Dilafgor,
Iltijosin maqbul ayla, yo Jabbor.
Bahaqqi hurmati Sayyidi muxtor,
Osiylarga nasib etgil shafolat.*

Yoki:

*Ey shahsuvor, dilbari xurshidi gul'uzor,
Taxti malohat avjida Yusuf kabi qaror,
Bo'lsun jahonda davlating izzatda ustuvor,
Vasling havosida mane dilxasta Dilafgor,
To tanda jon boricha qilg'um senga duo.*

Yoki:

*Ey pari, tanho erursan iqlimi Farg'onada,
Soqiyo, qilg'il karam, labtashna man g'amxonada,
Oh urib yig'lar Dilafgor kulbai vayronada,
So'rma maxmuru mukaddarlikni bu mayxonada,*

Kecha-kunduz oh urub, derman Muqimiy, yo sharob.

Yoki:

*Tilab haqdin mane osiy gunohin,
Ki oson aylabon vaqti hisobin,
Qabul aylang Dilafgor iltijosin,
Qatori osiylar ro 'zi qiyomat,
Madad, yo Ahmado, vaqti shafolat.*

Yoki:

*Do 'stlar, hyech kimsaga boqmang haqorat ko 'z bila,
Shishai ko 'ngul sinar zarra qabohat so 'z bila,
Har taomiki verar lazzat hamisha tuz bila,
Munisi g'amdur Dilafgor kecha ham kunduz bila,
Har nechuk begonalardin oshno kam-kam bo 'lur,*

Yoki:

*Har zamon ko 'rsam tag'oful peshani gul orazin,
Jon berib misli simobu iztirobim inchunin,
Volai sham'i ruxi albattadur ro 'yi zamin,
Nola aylarman, Dilafgor, nogahon ko 'rsam yuzin,
Qayrilib boqib tag'oful pesha yorim indamas.*

Yoki:

*Bazm ichinda o 'ynasang may tobidin nargis etib,
Vola aylar ahli majlisni ko 'zing imo etib,
Bu Dilafgor qullaringni g'amza birla o 'lturib,
O 't solib olam aro qoshi ko 'zing shahlanib,
Kuydurur bir lahzada jodui ahmar ko 'zlaring.*

Yoki:

*Nozanin, vaslingg 'a yetmak nechani haddi emas
Yoki sandin kimsani dam urmaki haddi emas,
Yo Dilafgorni senga so 'z aytmaki haddi emas,*

*Kecha yo kunduz demak, jono, Kamiy haddi emas,
Xo 'bliqni fursati yodin davom aylab keling.*

Yoki:

*Tavba qildim, tavbai maqbuli hidoyat aylagil,
Fazli ehsoning man osiyg 'a inoyat aylagil,
Bul munojoti Dilafgorni ijobat aylagil,
Rabbano, fag 'firlano, ey Xoliqi har du jahon,
Aylasam rihlat bu olamdin, yiborg 'il boiymon.*

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da keltirilishicha, “tavshih” (arabcha توشيح – ziynatlash) mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, misra yoki bayt boshidagi (ba'zan esa taqte'lar chegarasidagi) harflar yig'indisidan biror so'z (ism) keltirib chiqarish. Mazkur san'at asosida yozilgan she'r muvashshah deb nomlanadi¹ deb izohlangan.

Muvashshah

**Dardi hijroningg'a kuydum, ayla, ey dilbar, iloj,
Haq mukofotig'a bersun sham'i husnungg'a rivoj.**

**Izlasam dardimni dorusin tabiblar ahlidin,
La'li nobingni davvo deb ko'rsatur, ey xush mizoj.**

**Rahm etub bir yo'l muruvvat qil saxovat xonidin,
Bistari g'am uzra vaslingg'a bo'lubmen ehtiyoj.**

**Oh tortib misli Majnunmen, giriboni chokmen,
Hasratingda bo'ldi ashkim misli daryoyi mavoj.**

**Bir ko'rub husnungni bo'ldum mubtalo, zoru asir,
Xotirim g'amdin mukaddar to bu dam yo'qtur siroj.**

¹ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 298.

Xo‘bliq mulkida jono, bir ajoyib shohsen,
Mulki olam ahli bersun sango har doim xiroj.

Aylamas ersang tarahhum xasta holimg‘a agar,
Ko‘ksuma xanjar solib g‘amzang bilan qonimni soch.

Naqdi umrum ishq i husnung birla, ey oliygahi,
Kecha-kunduz g‘am chekib o‘tti Dilafgor lo iloj.

Mazkur g‘azalda “Dorobxon” ismiga muvashshah chiqarilgan. “Gulshani Dilafgor”da bir qator muvashshah qayd etilgan. Masalan, “Dorojon”, “Nazirjon”, “Qorixon” muvashshahlari shular jumlasidandir. Lekin “tavshih san'ati g‘oyat nozik, u shoirdan juda katta mahoratni talab etadi, chunki keltirib chiqarish ko‘zda tutilgan so‘z misra (yoki bayt)ni ma'lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa misra (yoki bayt)ni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so‘z bilan emas, chiqarilgan ismga mos so‘z bilan boshlashni taqozo qiladi, natijada shakl mazmundan ustuvorroq bo‘lib qoladi. Ya'ni tavshih san'ati yuksak mahorat va did bilan qo‘llansagina, she'rga zeb bo‘ladi, aks holda u she'rning badiiy saviyasini tushirib yuborishi ham mumkin”¹ligini esda tutsak, Dilafgor muvashshahida badiiyat yorqin bo‘yoqlari bilan bo‘y ko‘rsatadi.

“Gulshani Dilafgor” to‘plamidagi she'rlar ifoda va mazmun jihatidan turfa janrga mansub bo‘lib, shoir mumtoz sheriyatimizda keng qo‘llanilgan g‘azal, muxammas, muvashshah, musaddas, tarje'band, chiston va fard kabi janrlarda samarali ijod qilgan. Dilafgor yashab, ijod qilgan davr adabiyotimizda milliy uyg‘onish davri deb atalishida ham katta ma'no bor. Shoir ijodida davrning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Bu haqda yuqorida ham fikr bildirgan edik. Ma'lumki, har bir ijodkor davr bilan hamnafas tarzda ijod qiladi, shu sababli uning asarlarida mavjud tuzum belgilari qaysidir ma'noda bo‘y ko‘rsatadi. Dilafgor ijodida ham bu holni ko‘rish mumkin. Hayoti davomida ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan

¹ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 298.

va og'ir ijtimoiy–siyosiy davrda yashagan, adib lirikasida ijtimoiy-siyosiy ruhdagi she'rlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, shoir asarlarining asosini g'azal janri tashkil etadi

“Gulshani Dilafgor” to'plamida shoirning 51 ta she'ri jamlangan bo'lib, shundan 23 tasi g'azaldir. Ko'rinib turibdiki, adib ijodida g'azal janrining o'rni katta.

Mazkur g'azallarda yuqorida ko'rib o'tgan badiiy san'atlardan tashqari, talmeh san'atidan ham unumli foydalanilgan. G'azallarda qo'llanilgan badiiy san'atlar o'z navbatida ijodkorning ichki ruhiy olamini ochib beradi. Ayniqsa, diniy–falsafiy mavzudagi lirik asarlarida bu hol yaqqol seziladi. Bu haqda yuqorida batafsil mulohaza yuritgan edik.

Dilafgor ijodida Navoiy dostonlari qahramonlari bo'lmish, Farhod va Majnun obrazlari ham qo'llanadi. Dilafgor ham Navoiy ijodiga havas bilan qaragan, uning ijodidan bahramand bo'lib, unga o'xshash g'azallar bitgan.

Shoir badiiy mahoratini nechog'lik yuqori bo'lganini yuqoridagi kuzatuvlardan ham ayon bo'ladi. Dilafgor an'anaviy she'riyatimizda qo'llangan badiiy san'atlarning lafziy, ma'naviy, mushtarak turalarini ishlatgan holda o'ziga xos lirik namunalar yarata oldi. Shoir lirikasida mumtoz adabiyotimizga xos ko'plab badiiy san'atlardan keng va o'rinli foydalangan.

Mazkur fasldagi mulohazalardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Dilafgor ijodida badiiy san'atning bir qator turlari uchraydi. Jumladan, badi'shunoslikdagi “iqtibos” san'atining “darj” turi shoir asarlariga ziynat bergan.

2. Shoir ijodida qofiya bilan bog'liq poetik usullarning eng qadimiylaridan biri bo'lgan “radd ul-matla” yoki “iyto” turlaridan, chunonchi, iytoning ikki navidan biri *iytoyi xafiy* (yopiq, yashirin takror) qo'llanilgan.

XULOSA

O'rtasiy xalqlari o'zlarining uzoq va shonli tarixiga ega. Bu tarix turli davrlarda turfa xilda tasnif qilindi. Mazkur xalqlar yaratgan badiiy durdonalar jahon adabiyoti xazinasidan munosib o'rin egallagan. Adabiyot tarixida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab ijodkorlar yaratgan o'lmas asarlar jahon madaniyati xazinasining boyishiga munosib ulush bo'lib qo'shilgan. Boy madaniy merosimizdan, xususan, mumtoz adabiyotimizning nodir namunalaridan milliy mafkurani bunyod etishda foydalanish zarurligini respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov o'z nutqlarida qayta-qayta ta'kidlab kelmoqda. Ana shunday merosimizning bir qismi jadid yozuvchilari tomonidan yaratilganini ta'kidlash lozim. Ma'lumki, jadid adabiyotida an'anaviy timsol va timsollilik o'zgacha tus oldi: Vatan, Millat, Ma'rifat g'oyalari kirib keldi va ular yangicha mazmun kasb etdi, jaholatga, nodonlikka, qoloqlikka qarshi kurash shiori jarangladi. Istiqlol g'oyasi ochiqchasiga bo'lmasa-da, badiiy asarlar qoniga singdirilgan holda berildi. Dilafgor ijodi ham ana shunday xususiyatlarni o'zida aks ettirgan she'riyat ekanini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

XX asr boshlarida yashagan va ijodiy faoliyat ko'rsatgan shoir Dilafgor Toshkent adabiy muhiti vakillaridandir. Po'lotjon Domla Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asari ma'lumotlariga ko'ra, Mulla Abdulboriy deb qayd etilgan bo'lsa-da, u o'zini "Kitobfurush mullo Bo'riboy Shermuhammad o'g'li" deb tanishtirgan. Piskent ahliga adib mulla Bo'ri Shermuhammad hoji o'g'li Dilafgor nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lib, 1877-1949 yillarda yashab, ijod etdi.

Dilafgor shoir sifatida salaflariga ergashdi, ularga taxmislar bog'ladi, fuzuliyona usulda g'azallar bitdi, Yassaviy, Mashrab, Xislat, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Zavqiy, Furqat, Kamiy taxallusli shoirlarga muxammaslar bog'lagani fikrimiz tasdig'idir.

Shoirning "Gulshani Dilafgor" to'plami joriy imloda nashr etilgan bo'lsa-da, so'ngi kuzatuvlarimiz she'rlarning nashr va asliyati orasida ayrim nuqsonlar borligini ko'rsatadi. Ba'zi bir so'zlar noto'g'ri o'qilishi natijasida jiddiy xatoliklar

yuzaga kelgan. Bunday nuqsonlarning yuzaga kelish sabablarini kotibning yozuv nuqtalarini o‘z joyiga qo‘ymay ketishi, hatto umuman nuqtalarning bo‘lmasligi kabilar bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, Dilafgor bir-biriga o‘xshash radifli g‘azallar yozganligi bois ulardan ba'zilari tabdil qilinmay qolgan. Bunday paytlarda tabdilchidan ziyrak nigoh, teran bilim talab qilinadi. Yana bir jihat. Ayrim she'rlar orasida “va lahu ayzan” kabi shartli chegaralovchi so‘zlar qo‘yilmaganligidan ikki asar qo‘shilib nashr etilish hollari ham uchraydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, “Gulshani Dilafgor” to‘plami 23 g‘azal, 20 muxammas, (bir muvashshah), uch musaddas, (bir tarje'band), bir chiston va ikki farddan tashkil topgan. “Gulshani Dilafgor” to‘plami noshirlari Dilafgor ijodida Muqimiy, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning ta'siri kuchli bo‘lgan degan xulosalarga kelishsada, aslida shoir she'riyatining mavzu ko‘lami ancha kengroqdir. Dilafgorning haqiqiy musulmon farzandi sifatida hazrati Abu Bakr Siddiq munojotlariga taxmis bog‘laganligi ham bunga dalildir.

Dilafgor g‘azallarida ilohiy muhabbat, so‘fiyona sevgi motivlari ham kuylanadi. Shoir aksariyat she'rlarida yer go‘zaliga murojaat qilayotgandek bo‘lsada, aslida ularda Yaratganga bo‘lgan sevgisini izhor qiladi. Shu bilan birga fuzuliyona g‘azallar bitib, go‘zal an'anani davom ettirdi, Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi...” g‘azaliga bitgan tazmini shoirning bu dunyoning go‘zalliklaridan estetik zavq ola bilish ham kerakligini hisobga olsak, shoir she'riyatining mavzu ko‘lami yanada kengroq ekanligi ma'lum bo‘ladi.

Shoir milliy uyg‘onish davri ijodkori sifatida “uyg‘on, millat” deya hayqirdi, she'rlarida millatning tanazzulga yuz tutish sabablarini ham ko‘rsatishga urindi. Dilafgorning bunday asarlarida millatparvarlik va ma'rifatparvarlik g‘oyalari yorqin aks etganligini alohida ta'kidlamoq lozim.

Kuzatuvlarimizdan ayon bo‘ladiki, shoir mumtoz adabiyotimiz badiiy san'atlarining bir qator turlaridan unumli foydalangan. Badi'shunoslikdagi “iqtibos” san'atining “darj” turi shoir she'riyatiga ziynat bergan san'atlardan biri ekanini ta'kidlash kerak. Shoir ijodida qofiya bilan bog‘liq poetik usullarning eng

qadimiylaridan biri bo'lgan "radd ul-matla" yoki "iyto" turlaridan, chunonchi, iytoning ikki navidan biri *iytoyi xafiy* (yopiq, yashirin takror) qo'llanilgan. Shuningdek, "kalomi jomi", "mazhabi kalomiy", "ittifoq", "tavshih", "rujo" kabi badiiy san'atlar shoir Dilafgor g'azallari badiiyatini oshirgan omillardan sanaladi.

Umuman olganda shoir serqirra ijodkor bo'lib, mumtoz adabiyotimiz an'alarini munosib davom ettirdi.

Dilafgordan qolgan me'ros va uning qalamiga mansub betakror lirik asarlarlar adabiyotimiz tarixida munosib o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Manbalar:

1. دل اف كار. 1914 تاشدك پنت: ياك وف ليف مط بعه سي. – ك لشن دل اف كار.
2. مؤمين جان تاشدقين. تاشدك پنت ل يك و تاشدك پنت ده بولگان اوزب يك تاشدك پنت: 8491 – شاعرلارى ن پنگ ترجمه حال لارى.
3. لارى. (پر ملا بالله ن پنگ خاطره دف ترى). مؤمين جان محمد جانوف. تورموش اورينيش تاشدك پنت: 6291. –
4. Dilafgor. Gulshani Dilafgor. (Nashrga tayyorlovchilar: Adham Mamatqulov, Jaloliddin Jo‘raev, Ozod Alimov) – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2011.
5. Atoullloh Husayniy. Badoiu-s-sanoyi' (fors tilidan Alibek Rustamov tarjiması) – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – T. 1982.
6. Po‘latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. – T.: 1998.

Ilmiy adabiyotlar:

7. Abu Ali ibn Sino. She'r san'ati. Salomon va Ibsol. – T.: Fan. 1980.
8. Asrlar nidosi (to‘plam). G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – T.: 1982.
9. Braginskiy I.S. O prirode sredneaziatskogo djadidizma v svete literaturnoy deyatelnosti djadidov. V kn.: Braginskiy I.S. Iz istorii persidskoy i tadjikskey literatur. –M.: 1972.
10. Jabborov N. Ma'rifat nadir. – T.: “Ma'naviyat”, 2010, -112 b.
11. Jalolov A., O‘zganboev X. O‘zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti taraqqiyotida vaqtli matbuotning tutgan roli. – T.: Fan, 1993.
12. Jalolov A. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1991.
13. Jalolov A. Ozodlikni ulug‘lab. – T.: Fan, 1987.
14. Jalolov A. Inqilobiy davr o‘zbek adabiyoti va Shavkat ijodi. – T.: Fan, 1988.
15. Jalolov A. O‘zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti (1905-1917 yillar). – T.: Fan, 1978.

16. Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchi Sherali Turdiev). -T.: O'zbekiston, 1974.
 17. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: Zarqalam, 2006.
 18. Karimbek Kamiy. Dilni obod aylangiz. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi Olim To'laboev). – T.: Ma'naviyat, 1998.
 19. Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – T.: Ma'naviyat, 2000.
 20. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “O'zbekiston” NMIU. 2009.
 21. Mo'minov I. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. –T.: O'zRFA nashriyoti. 1960.
 22. Mahmudov G'. Jadid adabiyotida milliy istiqloq mavzui. –T.: O'zbekiston, 1999.
 23. Navoiy asarlari lug'ati (Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972.
 24. Nosirov O. O'zbek klassik she'riyati janrlari. -T.:
 25. Rashidova D. va boshqalar. Jadidchilik, islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam. №1. –T.: Universitet, 1999.
 26. Rizaev Sh. Jadid dramasi. –T.: Sharq, 1997.
 27. Rustamov A. Qofiya nima? –T.: Fan, 1976.
 28. Saidov H. Ma'rifat libosidagi ozodlik. – T.: Sharq, 2000.
 29. O'zbek adabiyoti tarixi (besh tomlik). V tom. – T.: Fan, 1980.
 30. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga materiallar. –T.: Universitet, 2004.
 31. Qosimov B. Milliy uyg'onish (jasorat, ma'rifat, fidoyilik). –T.: Ma'naviyat, 2002.
 32. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
 33. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.
- Dissertatsiya va avtoreferatlar:**
34. Jabborov N. A. Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari: filol. fan. nom... diss. -T.: 1994.

35. Jalolov A. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanish jarayoni: filol. fanl. dok... diss. –T.: 1994.
36. Karimov G'. O'zbek demokratik shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti: filol. fan. nom. diss. –T.: 1961.
37. Pardaev Q. Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publitsistik muammolar talqini ("Al-Isloh" jurnali materiallari asosida). filol. fan. nom... diss.. – T.: 2008.
38. Tojiev R. XX asr boshlari o'zbek adabiy tanqidi tarixidan: filol. fan. nom... diss. – T.: 1993.
39. To'laboev O.O. Karimbek Kamiyning hayot va ijod yo'li: filol. fan. nom... diss. – T.: 2010.
40. Amonov Sh.N. Hamza she'riyatining manbalari, matniy tadqiqi: filol. fanl. nomz... diss. – T.: 2010.